

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 58
Часть-9_Декабрь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Декабрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 9



Google
Scholar

IC²I JOURNALS
MASTER LIST

КАМОЛИДДИН АНДИЖОНИЙ МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ НАМОЯНДАСИ

Бахромов Суннатилла Ҳамиджон ўғли

Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази

катта илмий ходими

sunbah.bahsun.701@mail.ru

Аннотация: Мақолада аҳли сунна вал жамоа мазҳабининг тарихи ва мотуридийлик таълимотига оид билимлар таҳлил қилинади. Мотуридийлик мазҳабининг пайдо бўлиши ва бу мазҳабнинг ижтимоий ва географик таркибига тааллуқли масалаларга алоҳида эътибор қаратилган. Камолиддин Андижонийнинг илмий мероси ва ҳаётига доир таҳлиллар, унинг асарларига оид маълумотлар ва тарихий манбалардаги турли кўринишдаги исмлари бўйича ўрганишлар олиб борилади. Андижонийнинг мотуридийлик таълимотига олиб борган ҳиссаси ва унинг шахсини аниқлашдаги қийинчиликлар ҳамда бугунги кунга қадар келиб чиққан тадқиқотлар натижалари ҳақида маълумотлар тақдим этилган.

Калит сўз: Ahli sunna val jamoa, moturidiylik ta'limoti, Kamoliddin Andijoniy, islom falsafasi, ilohiyot, ash'ariylik, ma'naviy meros, tarixiy manbalar, farg'ona vodiysi, islom ta'limoti.

Аҳли сунна вал жамоа йўналиши хижрий III асрдан кейин кўпчилик ислом динига эътиқод қиладиган жамиятлар томонидан қабул қилинган диний мазҳабга айланди. Дастлабки даврларда кўплаб мазҳабларни ўз ичига олган бўлса-да, кейинги даврларга келиб “аҳли сунна вал жамоа” тушунчаси ашъарийлик ҳамда мотуридийлик мазҳаблари назарда тутиладиган мазҳаб сифатида амалиётга кирди. Ашъарийлик йўналиши ислом тарихида маълум бўлган ва кўпчилик томонидан қабул қилинган мазҳаб дея эътироф қилинган бўлса, мотуридийлик мазҳаби ҳақида бундай деб бўлмайди. Бунинг асосий сабаби сифатида, олимлар, мотуридийлик мазҳаби пайдо бўлган географиянинг ислом цивилизацияси шаклланган муҳитдан узоқда бўлганлиги ва бу мазҳабнинг яхши маълум бўлмаганини келтириб ўтади.

Бироқ вақтлар ўтиши билан мотуридийлик мазҳаби юзасидан ёзилган асарлар устида олиб борилган тадқиқотлар сезиларли даражада кўпайган. Бугунги кунда ҳам кўпгина давлатларда, хусусан Ўрта Осиё, Осиё ва Ғарб ўлкаларида мотуридийлик йўналишида қалам тебратган илоҳиёт олимлари, уларнинг қарашлари ва асарлари ҳақида тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бунинг

натижаси ўлароқ, илоҳиёт олимларининг мотуридийлик мазҳабига доир асарлари тадқиқ қилиниб, илмий муомалага олиб кирилди.

Қуйидаги мақолада сўз юритиладиган Камолиддин Андижонийни ҳам, кам тилга олинадиган, лекин шунга қарамай асари таржима қилиниб, ўрганилиши зарур бўлган улуғ олимлар тоифасига киритиш мумкин. Бироқ Андижоний ҳаёти ва илмий фаолиятига тўхталиб ўтиш тадқиқотчиларга бир мунча қийинчилик келтириб чиқариши табиий. Бунинг асосий сабаби сифатида олим ҳаёт-фаолиятига доир маълумотнинг озлиги ва бор йўғи бир неча табақот, тарожим асарларида келганини келтириш мумкин.

Замонавий тадқиқотчилар Андижоний ҳақида сўз юритадиган бўлса бир маълумотни ўртага ташлайди. У ҳам бўлса мотуридийлик таълимоти пайдо бўлган географиянинг ислом цивилизацияси шаклланган ҳудудлардан узокда бўлгани, ушбу ақидавий йўналишнинг кенг тарқалмаганини мотуридийлик мазҳаби алломалари ва уларнинг асарлари эътибордан четда қолиб, етарли даражада маълум бўлмаслигига сабаб сифатида келтиради¹.

Табақот ва тарожим манбаларида олимнинг исми турли кўринишда ифодаланган. Жумладан, Умар Ризо Каҳҳоланинг (1323-1408/1905-1987) “Мўъжам ал-муаллифин” номли асарида унинг тўлиқ исми Муҳаммад ибн Ҳажжож ибн Юсуф ибн Муҳаммад ибн Камол ибн Иъмод ибн Ғозий Андикафий тарзида келтирилган². Исмоил Пошо Бағдодийнинг (1255-1339/1839-1920) “Ҳадият ал-орифин” асарида эса олимнинг исми Камолиддин Муҳаммад ибн Абу Муҳаммад Ҳажжож ибн Юсуф ибн Иъмод ибн Ғозий Андиканий тарзида ифодаланган³.

Икки манбада келган исмнинг фарқлари ҳақида сўз юритиладиган бўлса, Каҳҳола келтирган ривоятда муаллиф номи “Камолиддин Муҳаммад” тарзида келтирилмаган. Исмоил Пошо Бағдодий қилган ривоятда эса “ибн Юсуф ибн Иъмод” номлари орасида “Муҳаммад ибн Камол” исмини қўшиб ифодалаган. Бундан ташқари “Мўъжам ал-муаллифин”да олимнинг нисбаси “Андикафий” сифатида тилга олиниши аллома туғилган ҳудуднинг асл номи бўлган “Андижон” сўзига тўғри келмайди. Бундан келиб чиққан ҳолда “Мўъжам” асари муаллифи олим исмини хато тарзда ифодалаган бўлиши мумкин деган таассурот уйғонади.

¹ Ҳофиз Ашур Ҳофиз Абдулалим. Камолиддин Андижонийнинг “Сидку ал-калом” асари: магистрлик дис. автореф. – Т.: Қоҳира университети, 2004. – Б. 13.

² Умар Ризо Каҳҳола. Мўъжам ал-муаллифин // Муҳаққиқи номалум. – Байрут: Мактаба ал-мусанна, 1993. – Ж. 3. – Б. 209.

³ Исмоил Пошо Бағдодий. Ҳадият ал-орифин // Муҳаммад Абдулқодир Аъто таҳқиқи. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмия, . – Ж. 7. – Б. 153. Бундан кейин. Исмоил Бағдодий. Ҳадият ал-орифин. – Ж. – Б.

Зеро олим туғилган ва бугунги кунда Ўзбекистон ҳудудида жойлашган Андижон вилояти Фарғона водийсининг жануби-шарқидаги унумдор ерларда барпо этилган бўлиб, Тошкент, Ўш, Жалолобод, Наманган ва Қўқон шаҳарларига олиб борувчи йўллар туташган ҳудудда жойлашган. Унумдор деҳқончилик майдонлари ва ер ости бойликларига эга бўлган вилоят тарихи VIII асрга бориб тақалади. Манбаларда ҳудуд номи Андукон, Андижон, Андуган ва Андугон номлари билан юритилади⁴.

Юқоридаги маълумотларни умумлаштирган ҳолда, “Мўъжам ал-муаллифин” асарида келтирилган “Андигафий” нисбасидаги охирги “н” ҳарфини “ф” ҳарфи билан алмаштириш орқали нусха кўчиришда хатога йўл қўйилган деган хулосага келиш мантиқан тўғри бўлади. Бундан ташқари Самъоний келтирган маълумотга кўра, олим туғилган шаҳар номи вақтлар ўтиши билан турли кўринишларга ўзгариб натижада ҳозирги “Андижон” кўринишига келиб тўхтаган. Ушбу ўзгариш эътиборга олинмагани сабабли баъзи турк тилида амалга оширилган тадқиқотларда олимнинг шахси шаҳарнинг бугунги кундаги номига мос тарзда “Андижоний” сифатида тилга олинган. Бироқ таржимаи ҳол йўналишидаги манбаларда, ҳатто муаллифнинг “Сидқ ал-калом” номи асарида ҳам олимнинг исми “Андиканий” сифатида тилга олинади, ҳудуднинг номи эса Андикан деб қайд қилинади⁵. Олим яшаган даврдан бир неча аср илгари, хусусан милодий XI асрда ёзилган манбалардан хабар берувчи асарларда эса, бу шаҳар ўша даврда ҳам “Андижон” тарзида номлангани тўғрисидаги маълумотларни кўриш мумкин⁶. Шунини инобатга олган ҳолда ушбу рисолада айнан “Андижоний” нисбасидан фойдаланишга ҳаракат қилинди.

Андижоний ҳаёти ҳақида манбаларда батафсил маълумотлар учрамайди, аслида бу ҳолат шарқий минтақада яшаган ханафий-мотуридийлик алломаларининг салмоқли қисмида ҳам кузатилади. Масалан, манбаларда Абул Ҳасан Ашъарий (260-324/874-936) ва унинг услубига эргашган олимлар ҳақида кўплаб маълумотлар мавжуд бўлса, имом Мотуридийлик (ваф. 333/945) ва Хуросон, Ўрта Осиё минтақаси атрофида яшаган бошқа мотуридийлик мазҳаби олимларининг ҳаёти ҳақидаги мавжуд маълумотлар анча чекланган. Бунинг асосий сабаби сифатида, турк тадқиқотчиларининг юқоридаги: “шарқий ҳудуд атрофида яшовчи алломалар географик жиҳатдан фан марказларидан олисда

⁴ Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур Тамимий Самъоний. Ал-Аълам // Абдуррахмон ибн Яхё Ямоний таҳқиқи. – Ҳайдаробод: Мажлис доира ал-маъориф ал-усмония, 1988. – Ж. 1. – Б. 217.

⁵ Камолитдин Андижоний. Сидқ ал-калом фи илм ал-калом // Ҳофиз Ашур Ҳофиз Абдулалим таҳқиқи. – Қоҳира: Қоҳира университети, 2004. – Ж. 2. – Б. 833. Бундан кейин. Сидқ ал-калом. Ҳофиз Ашур таҳқиқи. – Ж. – Б.

⁶ Бу ҳақида кейинги бобда тўлиқроқ маълумот берилади.

бўлган”, деган важини келтириш хато бўлади. Чунки ўша давр илмий марказларида шарқ алломалари ҳаётига оид маълумотларнинг кўп ва ранг-баранглиги бунинг нотўғри эканлигини очиб беради. Мовароуннаҳр ҳудудлари бу даврларда илмий жиҳатдан гуллаб яшнаган вақт ҳисобланган. Ушбу ҳудуддаги олимлар фаолияти ҳамда илмий асарларига доир маълумотларнинг оз бўлишига асосий сабаб қилиб 615-618/1218-1221 йиллар орасида ҳозирги Ўрта Осиё ҳудудини босиб олган мўғуллар томонидан амалга оширилган вайронагарчиликларни келтириш тўғрироқ бўлади. Мўғуллар ҳудудни босиб олгач, асрлар давомида моддий ва маънавий маданияти ривожланиб келган Ўрта Осиёдаги кўпгина шаҳарлар: Бухоро, Самарқанд, Хўжанд, Термиз, Ўтрор, Ўзган, Урганч, Кеш каби шаҳарлар вайронага айлантирилган. Бу шаҳарлардаги нафақат маънавий масканлар балки деҳқончилик воҳалари ҳам харобазор ҳолига келтирилган. Мўғул босқинчилари маҳаллий аҳолига ҳам, уларнинг маданиятига ҳам ҳеч қандай шафқат қилмаган. Араб тарихчиси Ибн Асир Жазарий (555-630/1160-1233) Ўрта Осиёдаги мўғул босқини ҳақида шундай ёзади: “...Хитой чегараларидан бир халқ чиқиб, Туркистондаги Қашғар ва Баласоғун каби вилоятларни, Мовароуннаҳрдаги Самарқанд, Бухоро ва бошқа шаҳарларни... вайрон этиб, қирғин қилиб, талон-торож қилиб эгаллади. Татарлар (мўғуллар) ҳеч қайси шаҳарни омон қолдирмадилар, кетаётиб вайрон этдилар. Улар ниманики ёнидан ўтган бўлсалар, ўзларига ёқмаган нарсаларга ўт қўйдилар”⁷. Моғуллар томонидан амалга оширилган босқин Мовароуннаҳр ўлкасида фаолият юритган дастлабки олимларга мансуб асарларнинг катта қисми йўқ бўлиб кетишига асосий сабаблардан бири бўлган. Кейинчалик ушбу ҳудудда содир бўлган турли воқеалар, булар орасида ҳокимиятнинг кўп бора алмашинуви натижасида содир бўлган жанглар ҳам кейинги давр олимлари ҳақидаги маълумотларнинг оз бўлишига олиб келган сабаблардан ҳисобланади. Шу каби уруш ва талончилик воқеаларида юзлаб, ҳатто минглаб асарлар йўқ бўлгани, уй-жойлар-у кутубхоналар вайрон бўлиб, бугунги кунгача сақланиб қолмагани инобатга олинса, бу ҳудудда яшаб ўтган уламоларнинг ҳозирги кунгача сақланиб қолган ижоди ва уларнинг таржимаи ҳоллари ҳақида олинган маълумотлар чекланганининг асосий омили бўлиши мумкин.

Дарҳақиқат, олим яшаган ҳудудлар тарих мобайнида кўплаб воқеалар, жанг-у жадалларга, бир қанча ҳукуматларнинг тез-тез алмашиб туришига гувоҳ бўлган. Бундан кўринадики, ушбу минтақа доимо ички ва ташқи нотинчликларни бошдан кечирадиган география ҳисобланган. Табiiйки бундай ҳолатлар илм аҳли фаолиятида сезиларли даражада ўз таъсирини

⁷ Абул Ҳасан Али ибн Абулкарим Муҳаммад ибн Муҳаммад Жазарий ибн Асир. Ал-Комил фи ат-тарих // Умар Абдуссалом Тадмирий таҳқиқи. – Байрут: Дор ал-китаб ал-аробий, 1997. – Ж. 10. – Б. 361.

кўрасатади. Камолиддин Андижоний ҳам тартибсизлик ҳукм сурган ҳудудда, Чигатой хонлари ҳукмронлик қилган давр ҳисобланган 726-777/1326-1375 йиллар оралиғида яшаб, фаолият олиб борган. Олим ҳақидаги энг ишончли ва кенг қамровли маълумотларни унинг “Сидк ал-калом” номли асари сўнгида топиш мумкин. У ўз исмини Муҳаммад Абу Муҳаммад Ҳажжож ибн Юсуф Ғозий Камолий дея ифодалаган бўлса-да, ибн Муҳаммад ибн Камол ибн Иъмод Ғозий Андижоний деб мурожаат қилинишини афзал кўрган⁸.

Олимнинг туғилган вақти ва жойи хусусидаги маълумотни ҳам айнан “Сидк ал-калом” номли асарида келтирилган қайддан аниқлаб олиш мумкин. Жумладан, Андижоний ўзи таваллуд топган вақти ҳақида шундай маълумотни келтириб ўтган: “Менинг туғилишим 726 йил Муҳаррам ойининг 10-куни (1325 йил 16-декабр) жума намози вақтида ёки ундан бироз кейинроқ бўлган. Туғилган жойим Фарғона вилоятининг Андижон шаҳридир”⁹.

Олимнинг болалиги, таълим-тарбияси, устозлари ҳақида кўп маълумот мавжуд эмас. У ўз ижодида тўхталиб ўтган мавзулар номларини тилга олган манбаларга асосланиб, унинг калом, тафсир, фикҳ, араб тили ва балоғат илмларини яхши ўзлаштиргани билан бир қаторда, абжат ҳисобига ҳам қизиққанлигини англаш мумкин. Андижоний ўз асарида икки устозининг номини тилга олади. Булар: “Сидк ал-калом”нинг асосини ташкил этувчи илоҳий масалалар ва асосий эътиқодий тушунчаларни ўрганган устози, ўша даврдаги Хоразм вилояти имоми бўлиб фаолият олиб борган Тождиддин Хитойий (ваф. номаълум)¹⁰ ҳамда Хоразм муҳаддисларидан бири Низомиддин Абу Наср Маҳрийдий (ваф. номаълум)¹¹. Андижоний асар сўнгида Хитойидан таълим олганини баён қилиш билан бирга, ушбу устози орқали Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васалламга қадар етиб борасидаги илмий силсиласини ҳам баён қилган. Жумладан олим асарда илмий силсилани шундай изоҳлайди: “Бу китобнинг асоси бўлган илмларни Хоразм масжиди имоми, устозим Тождиддин Хитойидан ўргандим, у эса шайхи Садриддин Ҳибатуллоҳ Фуладийдан, у отаси Қивомиддин Аъйнуллоҳ Фуладий Бустийдан, у Ҳамидуддин Бухорийдан¹² (ваф. 666/1267), у Шамсуддин Муҳаммад ибн Абдуссаттор ибн Муҳаммад Кардарийдан (559-642/1164-1244), у “Ҳидоя” асари муаллифи Бурҳониддин Абул Ҳасан Али ибн Абу Бакр ибн Абдулжалил Ришдоний Марғинонийдан

⁸ Сидк ал-калом. Ҳофиз Ашур таҳқиқи. – Ж. 1. – Б. 14.


⁹ Сидк ал-калом. Ҳофиз Ашур таҳқиқи. – Ж. 2. – Б. 833.

¹⁰ Камолиддин Андижоний. Сидк ал-калом. Дор ал-кутуб ал-мисрия кўлёмаси, Р: 265. – В. 365b.

¹¹ Асарда келган маълумотга кўра, Андижоний Замаҳшарийнинг “Кашшоф” номли асарини ҳижрий 759 йилда айнан мана шу устозидан ўқиган.

¹² Олимнинг тўлиқ исми Али ибн Муҳаммад ибн Али Ромиший Ҳамидуддин Зарир Бухорий. Андижоний келтириб ўтган устозлар силсиласининг ушбу олимгача бўлган устозлари ҳақидаги маълумотлар ҳали аниқланмаган.

(530-593/1135-1196), у Нажмиддин Абу Хафс Умар Насафийдан (462-537/1070-1142), у эса уч шайхи: Садрулисом Абул Юср Паздавий (421-493/1030-1100), унинг укаси Фахрулисом Али Абу Муҳаммад ибн Хусайн Абул Уърс Паздавий (400-482/1010-1089) ва Шамсуддин Абу Бакр Муҳаммад ибн Абу Саҳл Сарахсийдан (ваф. 501/1107), бу уч киши ўз навбатида Шамсуддин Абу Муҳаммад Абдулазиз ибн Аҳмад Халвонийдан (ваф. 449/1057), у қози Абу Зайд Дабусийдан (367-430/977-1038), у Абу Хафс Уструшонийдан (ваф. 400/1009), у Абу Али Ҳасан ибн Хизир Насафийдан (ваф. 424/1033), у Абу Бакр Муҳаммад ибн Фазл Бухорийдан (302-381/914-991), у Абдуллоҳ ибн Ёқуб ибн Муҳаммад Саййид Мунийдан (ваф. номаълум), у Абу Абдуллоҳ Ҳафсий Бухорийдан (ваф. номаълум), у отаси Абу Хафс Кабир Бухорийдан (150-217/767-832), у Муҳаммад ибн Ҳасан Шайбонийдан (131-189/748-805), у имом Аъзам Абу Ҳанифа Нўмон ибн Собит Куфийдан (80-150/699-767), у устози Ҳаммод ибн Абу Сулаймондан (ваф. 120/746), у Иброҳим Наҳайдан (50-96/670-715), у Алкамадан (ваф. 62/681), у Абдуллоҳ ибн Масъуд розияллоху анҳудан, у зот пайғамбарларнинг сўнгиси Муҳаммад Расулуллоҳ соллаллоху алайҳи васалламдан илм олган¹³. Қуйида Андижоний келтириб ўтган устозлар силсиласи жадвал кўринишида келтириб ўтилган:



¹³ Камолиддин Андижоний. Сидк ал-калом. Дор ал-кутуб ал-мисрия қўлёзмаси, Р: 265. – В. 365b-366b.

QUR'ON OYATLARINING NOZIL BO'LISH SABABLARI: KLASSIK VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Yaxshilikov Abdulaziz Mo'minovich

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qur'on oyatlarining sababi nuzuliga doir ilmiy asarlar va ularga bag'ishlangan tadqiqotlar haqida so'z yuritilgan. Sababi nuzulni aniqlash Qur'onning to'g'ri tushunilishi uchun zarur bo'lib, mufassirlar tomonidan uzoq vaqt davomida bu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada, sababi nuzul haqida yozilgan asarlar, ularning mualliflari, va bu ilmiy tadqiqotlarning tarixiy o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, sababi nuzulning aniq aniqlanishi uchun ilmiy yondashuvlar va metodlar ham yoritilgan. Tadqiqotlar, asosan, hadislar, tafsir, va tarixiy manbalar asosida olib borilgan bo'lib, bu asarlarning ilmiy qadriga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, sababi nuzul, mufassirlar, tafsir, ilmiy asarlar, hadis, tarixiy manbalar, ilmiy tadqiqotlar, Ali ibn Madiniy, Abulhasan Vohidiy, Jaloliddin Suyutiy.

Har bir tarixiy voqea, ijtimoiy hodisa yoki siyosiy jarayonni tahlil qilish hamda uning yechimi yuzasidan muayyan taklif ishlab chiqish uchun uni yuzaga keltiruvchi sabablarni aniqlash talab qilinadi. Xuddi shu kabi Qur'oni karimning ham ko'plab sura va oyatlarini anglash uchun ularning nozil bo'lish sabablarini bilish zarurdir.

Mufassirlar sababi nuzullardan Qur'on oyatlarini tafsir qilishda doimo foydalanib kelishgan. Shu bilan bir qatorda, sababi nuzullarga bag'ishlab alohida asarlar ham yozilgan. Shunday asarlardan biri Maymun ibn Mehron (117/735-yili v.e.) tomonidan yozilgan "Tafsil li-asbob at-tanzil" ("تفصيل الاسباب التنزيل") nomli asar bo'lib, uning nusxalari bugungi kungacha yetib kelmagan. Ushbu asar nomi Ibn Hajar Asqaloniyning asarida tilga olingan. Unga ko'ra, shomlik olim Abdulhakim Unays mazkur asar mavjudligini aytib, uning qo'lyozmasini ko'rganini ta'kidlagan¹.

Ali ibn Madiniy (161/778–234/849) "Asbob an-nuzul" ("اسباب النزول") asarini yozgan². Lekin ushbu asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi aniqlanmagan. Muallifning jarh va ta'dil, ilal al-hadis masalasida peshqadamlardan biri bo'lgani hisobga olinsa, u kitobiga faqat sahih va hasan darajadagi rivoyatlarni kiritgan, deb

¹ Ahamad ibn Ali Ibn Hajar Asqaloni. Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – Dammom-Saudiya Arabistoni: Dor Ibn al-Javziy, 1417/1997. – J. I. – B. 80.

² Badriddin Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1376/1957. – J. I. – B. 22.

taxmin qilish mumkin. Imom Buxoriyning “Hech kimning oldida o‘zimni Ali ibn Madiniyning oldidagi kabi arziyas sanamaganman”³ degan so‘zi ham uning hadis bobida qanchalik darajada yetuk bo‘lganiga dalildir.

Qozi Abdurahmon ibn Muhammad ibn Iso (402/1012-yili v.e.) ham sababi nuzulga doir alohida asar yozgan bo‘lib⁴, Ibn Bashkuval (494/1101–578/1183) uning nomini “al-Qisos va-l-asbob allatiy nazala min ajliha al-Qur’on” (“القصص والاسباب التي نزل من اجلها القرآن”) shaklida zikr qilgan⁵. Ibn al-Imod Hanbaliy (1032/1623–1089/1679) mazkur asar nomini “Kitob asbob an-nuzul” deb keltirgan⁶. Imom Zahabiy esa “Kitob al-Qisos” va “Kitab asbob an-nuzul”ni boshqa-boshqa asarlar degan fikrni ilgari surgan⁷ lekin qat’iy to‘xtam bermagan. Asar nomidan ko‘rinib turibdiki, muallif sabab bilan qissani bir-biridan ajratgan. Agar ular bir xil ma’noni anglatganida bittasi bilan kifoyalangan bo‘lar edi. Shuningdek, asar nomi Qur’onda zikri kelgan ummatlarning qissalari nozil bo‘lish sababiga aloqador emasligini anglatadi. Qozi Abdurahmon ommaviy kutubxonlar ko‘p, nusxa ko‘chiruvchi xattotlar serob bo‘lgan davrda yashagan. Ayniqsa, Andalus podshohlari Bag‘dod va islom olamining boshqa o‘lkalaridagi kitoblarni imkon qadar yig‘ishga alohida ahamiyat berishgan. Shu sababli Qozi Abdurahmon Ali ibn Madiniyning asari bilan tanish bo‘lgan va o‘z asarida undan ko‘proq ma’lumotlarni jamlagan deyish mumkin. Qozi Abdurahmonning katta muhaddis bo‘lgani⁸ va Qur’on ilmlari bilan shug‘ullangani ham mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Ismoil ibn Ahmad Naysaburiy Zorir (431/1040-yili v.e.) Qur’on oyatlarining nuzul sababiga aloqador shaxslarga doir “Asmo man nazala fiyhim al-Qur’an” asrini yozgan. Ismoil Naysaburiyni olimlar qiroat, tafsir va hadis bobida imom bo‘lganini qayd etishgan⁹. Jaloliddin Suyutiy (849/1445–911/1505) o‘zining “al-Itqon fi ulum al-Qur’on” asarida “Asmo man nazala fiyhim al-Qur’on”dan manba sifatida foydalanganini aytib, adabiyotlar ro‘yxatida keltirgan. Bu esa XV asarning oxirlarida mazkur asar xalq orasida mavjud bo‘lganidan dalolatdir.

Sababi nuzulga doir bugungi kungacha yetib kelgan eng mashhur manbalardan biri Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiyning (468/1076-yili v.e.) “Asbob an-nuzul” (“اسباب النزول”) asari bo‘lib, muallif unda besh yuzdan ortiq rivoyatlarni keltirgan. U

³ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyaru a’lom an-nubalo. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 1402/1982. – J. XII. – B. 420.

⁴ Shamsiddin Muhammad ibn Ali Dovudiy. Tobaqot al-mufasssiriyn. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983. – J. I. – B. 291.

⁵ Ibn Bashkuval / Qosim Xalaf Ansoriy ibn Abdulmalik. As-Silat. – Qohira: Maktabat al-xonijiy, 1374/1955. – B. 311.

⁶ Abdulhay ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Imod Hanbaliy. Shazarot az-zahab fi axbar man zahab. – Bayrut: Dor Ibn Kasir, 1406/1986. – J. V. – B. 11.

⁷ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Tarix al-islom. – Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy, 1410/1990. – J. XXVIII. – B. 61.

⁸ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Al-Ibar fi xabar man g‘abar. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1405/1985. – J. II. – B. 201.

⁹ Al-Ibar fi xabar man g‘abar. – J. II. – B. 262.

mavzuni yoritishda avval sura nomini keyin esa oyatlarning nozil bo'lish sabablarini keltirgan. Muallif kitob muqaddimasida sababi nuzullarni faqat rivoyat qilish va birovdan eshitish orqali gapirish joiz emasligini ta'kidlagan¹⁰. Shuni ham aytish kerakki, mazkur asarda sanadsiz rivoyatlar ko'p uchraydi. Masalan, Moida surasining 57–58-oyatlarining sababi nuzuli haqida keltirilgan rivoyat sanadsiz holda zikr qilingan. Vohidiy Ahmad ibn Ibrohim Sa'labiyning (427/1035-yili v.e.) shogirdlaridan biri hisoblangan¹¹. U ustozining tafsirga oid “al-Kashf va al-bayon” nomli asaridan ko'p o'rinlarda foydalanganini ko'rish mumkin. Vohidiy ustozining ma'lumotlarini ishonchli deb hisoblagani sababli ularni o'zi alohida tadqiq qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri berishni ma'qul ko'rgan.

Abulmuzaffar Muhammad ibn Asad Hanafiy (567/1172) “Asbob an-nuzul va-l-qisos al-Furqoniya” (“اسباب النزول والقصاص الفرقانية”) nomli asar ta'lif qilgan¹². Tadqiqotchi Sayyid Muhammad Abdulkarim mazkur asarning Berlin va Chester Bettidagi ikkita nusxasi asosida tadqiqot olib borgan. Biroq bu tadqiqotning nashri hali amalga oshirilmagan.

Salohiddin Safadiyning (764/1363-yili v.e.) ma'lumotiga ko'ra, shia olimlaridan Abu Ja'far Muhammad ibn Ali ibn Shahrishubga (588/1192-yili v.e.) oyatlarning nozil bo'lish sabablariga oid “Asbobu nuzul al-Qur'on” (“اسباب نزول القرآن”) nomli asar yozgan¹³. “Majma' al-muallifin” asari muallifi Umar Rizo esa mazkur asarning nomini “al-Asbob va-n-nuzul ala mazhabi oli ar-rasul” (“الأسباب والنزول على مذهب آل الرسول”) shaklida keltirgan¹⁴.

Abulfaraj ibn Javziy (597/1200-yili v.e.) “Asbab an-nuzul” (“اسباب النزول”) nomli kitob tasnif qilgan. Hoji Xalifa (1067/1657-yili v.e.) asarni ayni nom bilan qayd etgan¹⁵.

Abu Is'hoq Ibrohim ibn Umar Ja'bariy (632/1234-yili v.e.) “Muxtasar asbob an-nuzul” (“عجائب النقول في تبليغ الرسول”) nomli kitobni yozgani ma'lum. Ushbu asarning qo'lyozma nusxalaridan biri Berlin kutubxonasida 3578-raqam ostida saqlanmoqda. Asarning mazkur qo'lyozma nusxasi muallifning hayotlik chog'iga yaqin bir davrda ko'chirilgani bilan ahamiyatlidir. Ja'bariyning asari Vohidiyning kitobiga asoslangan bo'lib, muallif unga sanadlarni qo'shish bilan kifoyalangan¹⁶. Mazkur ikki asar tahlil qilinganda, Ja'bariyning Vohidiy keltirmagan ba'zi xabarlarni ham qo'shganini

¹⁰ Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. Asbobu nuzul al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1411/1991. – B. 10.

¹¹ Siyaru a'lom an-nubalo. – J. XVIII. – B. 339.

¹² Abdurahmon ibn Amjid Husayn. Asbob an-nuzul. PhD dissertatsiyasi. Islomobod xalqaro islom universiteti. – Islomobod, 1438/2017. – B. 29.

¹³ Salohiddin Xalil ibn Oybak Safadiy. Al-Vofiy bi-l-vafayot. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy, 1420/2000. – J. IV. – B. 118–119.

¹⁴ Umar Rizo Kahola. Mu'jam al-muallifin. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy, 1376/1957. – J. XII. – B. 16.

¹⁵ Hoji Xalifa. Kashf an-zunun an asomiy al-kutub va-l-funun. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy. Nashr yili ko'rsatilmagan. – J. I. – B. 77.

¹⁶ Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1429/2008. – B. 77.

ko‘rish mumkin. Bunga Baqara surasi 14–16-oyatlarining nozil bo‘lish sabablari bilan bog‘liq ikkita rivoyatni misol keltirish mumkin.

Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy (773/1371–852/1448) ham sababi nuzul bilan bog‘liq “al-Ujob fi bayon al-asbob” (“العجاب في بيان الاسباب”) nomli asar yozgan. Kitobning mazkur nom bilan atalishi muallif tomonidan asarning muqaddima qismi oxirida ochiq-oydin bayon qilingan¹⁷. Hoji Xalifa ushbu asarni ikki xil shaklda qilgan. Birinchisida “Asbob an-nuzul” nomi bilan, ikkinchisida esa “al-I’job bi-bayon av tibyon al-asbob” shaklida keltirgan¹⁸. Hoji Xalifa keltirgan birinchi nomni Jaloliddin Suyutiy “ad-Dur al-mansur” asarida ayni ko‘rinishda qayd etgan¹⁹. Ibn Hajar kitobini Vohidiygacha bo‘lgan sanad bilan boshlagan. So‘ngra sanadsiz kelgan bir necha rivoyatlarga e‘tiroz bildirgan. Unga ko‘ra, gap sanadni keltirishda emas, balki o‘sha sanadning sahihligidadir. U shundan kelib chiqib: “Qanchadan qancha uzluksiz sanadlar borki, ular yolg‘onchi, matruk, qo‘pol xato qiluvchi roviylar tomonidan rivoyat qilingan. Qanchadan qancha xabarlar borki, sanadsiz zikr qilinsa-da, “bu falonchining asari kuchli sanad bilan rivoyat qilingan” deyiladi”²⁰ deydi. Ibn Hajar sanadi keltirilmagan rivoyatlarning sahih, hasan, zayif va o‘ta zayif kabi darajalarini bayon qilgan. Odatda u, avvalo, oyatlar xususida Vohidiyning gapini keltirib, so‘ngra uning manbasini qayd qilgan yoki rivoyatning darajasini belgilab olgan. Shuningdek, u bu boradagi boshqa fikr-mulohazalar va rivoyatlarni ham naql qilgan. Muallif mazkur asarini yozishda tafsir, Qur‘on ilmlari, hadis va hadis ilmlari, siyrat, tarix va boshqa ilmlarga oid bir yuz yigirma uchta manbadan foydalangan²¹.

Jaloliddini Suyutiy (849/1445–911/1505) sababi nuzulga oir o‘z davrigacha yozilgan asarlardan foydalanib, “Lubob an-nuqul fi asbab an-nuzul” (“لباب النقول في اسباب النزول”) nomli alohida bir asar yozgan. Mazkur asar Vohdiyning kitobiga qaraganda o‘zining ixchamligi, ko‘p ma‘lumotni jamlagani, har bir hadis mashhur to‘plamlarga nisbat berilgani, sahih, qabul qilinadigan va qilinmaydiganlari saralangani, sababi nuzulga taalluqli bo‘lmagan rivoyatlar chiqarib tashlangani bilan ajralib turadi. Suyutiyning mazkur asari “Asbob an-nuzul” nomi bilan Misrda 1873-yili alohida kitob holida nashr etilgan. “Lubob an-nuqul fi asbob an-nuzul” nomi bilan esa “Tafsir al-Jalolayn” asarining hoshiyasida 1897 va 1909-yillari Misrda hamda 1910-yili Qozon shahrida nashr qilingan. Shuningdek, asar 1894 va 1900-yillari Karachida Qur‘oni karimning hoshiyasida nashr qilingan.

¹⁷ Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – J. I. – B. 63.

¹⁸ Kashf an-zunun an asomiy al-kutub va-l-funun. – J. I. – B. 76, 120.

¹⁹ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Ad-Dur al-mansur fi tafsir al-ma’sur. – Bayrut: Dor al-fikr, 1432/2011. – J. VIII. – B. 699.

²⁰ Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – J. I. – B. 200.

²¹ Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – J. I. – B. 141.

Atiyyalloh ibn Atiyya Burhoniyy Ajhuriy (1190/1776) “Irshod ar-Rahmon li-asbob an-nuzul va-n-nasx al-mutashobeh va tajvid al-Qur’on” (“ارشاد الرحمان لأسباب”) nomi ostida sababi nuzulga doir asar yozgan. Muallif mazkur kitobda Vohidiy, Ja’bariy va Suyutiyyning asarlari xulosasini bir joyda jamlashga harakat qilgan. Qisqartirish maqsadida sanadlarni va takrorlarni keltirmagan. Har bir suraning nozil bo’lish sababi haqida alohida so’z yuritib, izidan mansux (hukmi bekor qilingan) oyatlarga to’xtalgan. Shuningdek, Ibn Atiyya mutashobeh oyatlarga ham to’xtalib, asarni suralarning fazilati to’g’risidagi ma’lumotlar bilan tugatgan.

Zamonaviy tadqiqotchilardan Muqbil ibn Hodiyy Vodi’iy sababi nuzulga oid “as-Sahih al-musnad min asbob an-nuzul” (“الصحيح المسند من أسباب النزول”) nomli asar yozgan bo’lib, unda ikki yuz sakson yettita rivoyat keltirilgan. Muallif asosan matn tahliliga emas, balki sanad masalasiga ko’proq ahamiyat bergan. Ushbu asarning ayrim o’rinlarida Madinada yuz bergan voqealarni makkiy oyatlarning nozil bo’lishiga sabab qilib keltirilganini ko’rish mumkin. Masalan, Muttaffifun surasi Makkada nozil bo’lgani ma’lum bo’lsa-da, muallif unga Madinada yuz bergan voqeani sabab qilib ko’rsatgan. Mazkur rivoyat Ibn Abbos tomonidan naql qilingan bo’lib, unga ko’ra, Payg’ambar (s.a.v) Madinaga kelgan vaqtda, u yerdagilar o’lchov borasida yomon ekanini ko’radi. Shunda Alloh: **“(Savdo-sotiqda o’lchov va tarozidan) urib qoluvchi kimsalar holiga voy”**²² oyatini nozil qiladi. Shundan so’ng ular o’lchov masalasida yaxshi tomonga o’zgarishadi. Vodi’iy boshqa bitta voqeani bir o’rinda madaniy oyatning, boshqa o’rinda esa makkiy oyatning nozil bo’lishiga sabab qilib ko’rsatgan. Matn tanqidi e’tibordan chetda qolgani sababli Vodi’iy “Usul qoidalari”²³ bobida keltirgan ta’rifiga rivoyatlar mos kelmay qolganini ko’rish mumkin.

Sababi nuzulga doir doktorlik darajasidagi ilmiy ishlar ham mavjud bo’lib, ulardan biri Hammod Abdulxoliq Hulva tomonidan “Asbobu nuzul al-Qur’on masodiruha va manohijuha” (“أسباب نزول القرآن مصادرها ومناهجها”) nomi ostida amalga oshirilgan. Keyinchalik mazkur ish ikki jild holida chop etilgan²⁴. Muallif asarning birinchi jildini sababi nuzul rivoyatlarining manbalariga bag’ishlagan. Tadqiqotchi hadis to’plamlaridan “Muvatto”, “Sahihi Buxoriy”, “Sahihi Muslim”, tafsir kitoblaridan “Tafsiri Tabariy”, “Tafsiri Qurtubiy”, “Tafsiri Ibn Kasir”, bundan tashqari “Siyрати Ibn Hishom”, “Tabaqoti Ibn Sa’d”, “Tarixi Tabariy”, “al-Bidoya va-n-nihoya” kabi siyrat, mag’oziy, tarix kitoblarini, ulum al-Qur’onga oid “al-Burhon”,

²² Muttaffifun surasi 1-oyat.

²³ Muqbil ibn Hodiyy Vodi’iy. As-Sahih al-musnad min asbob an-nuzul. – San’o-Yaman: Maktabat San’o al-asriyya, 1425/2004. – B. 16–18.

²⁴ Hammod Abdulxoliq Hulva. Asbobu nuzul al-Qur’on masodiruha va manohijuha. – Amman: Maktabat at-tali’a, 1980. I–II.

“al-Itqon”, “Asbab an-nuzul”, “Lubob an-nuqul” kabi asarlarni tahlil qilgan. Asarda sababi nuzul rivoyatlarini to‘plashga e’tibor qaratilmagan, balki imkon qadar mavzuga doir mavjud manbalarni o‘rganish nazarda tutilgan. Shuni ham aytish kerakki, fiqh kitoblari muallifning nazaridan chetda qolgan. Zero, imom Kosoniyning (587/1191-yili v.e.) “Badoe’ as-sanoe’”, Ibn Hazmning (384/994–456/1064) “al-Muhalla” kabi asarlarida sababi nuzul haqida so‘z yuritilgan. Hammud Abdulxoliq kitobning ikkinchi jildida ulamolarning sababi nuzulni o‘rganishda qo‘llagan uslublariga, uni bayon qilishda mazhablarning qarashlariga to‘xtab o‘tgan.

Abdulfattoh Qozi “Asbob an-nuzul an as-sahoba va-l-mufasssirin” (“أسباب النزول عن الصحابة والمفسرين”) nomli asar ta’lif etgan bo‘lib, muallif unda sababi nuzul rivoyatlarini Vohidiy va Suyutiyning uslubida bayon qilgan. U ba’zan asarda voqea yuz bergan joyni zikr qilgan, lekin bu holatni kitobning oxirigacha muntazam davom ettirmagan. Ba’zi o‘rinlarda roviylar nomi keltirilgan bo‘lsa, ayrim o‘rinlarda ular tushirib qoldirilgan. Masalan, muallif **“Alloh yo‘lida qatl etiluvchi (shahid)lar haqida: “(Ular) o‘liklardir” demangiz! Yo‘q! (Ular) tirikdir, lekin sizlar (buni) sezmaysiz”** oyati bilan bog‘liq rivoyatda na roviyni va na uning qaysi asarda kelganini bayon qilgan. Unga ko‘ra, bu oyat Badr jangida halok bo‘lgan musulmonlar haqida nozil bo‘lgan. Ularning soni o‘n to‘rtta bo‘lib, sakkiztasi ansorlardan, oltitasi muhojirlardan iborat bo‘lgan. Odamlar Alloh yo‘lida o‘ldirilgan kishilar haqida: “Falonchi o‘lib ketdi, dunyo ne’mati va lazzatidan bebahra qoldi” deyishadi. Shunda Alloh mazkur oyatni nozil qiladi²⁵. Muallif **“Allohga (qurbonlik) go’shtlari ham, qonlari ham yetib bormas. Lekin u Zotga sizlardan taqvo yetar...”**²⁶ oyati haqida esa Ibn Abu Xotim kitobida kelgan Ibn Jurayjdan naql qilingan rivoyatni bergan. Unga ko‘ra, johiliyat ahli Ka’ba atrofiga o‘zlari so‘ygan tuyalarning go’sht va qonlarini surkashadi. Payg‘ambar (s.a.v.)ning sahobalari esa bunga biz haqliroqmiz deyishadi. Shunda Alloh mazkur oyatni nozil qiladi²⁷. Ko‘rinib turibdiki, muallif ushbu o‘rinda rivoyatning roviyini ham, muhaddisini ham zikr qilib o‘tgan. Imom Moturidiy ham bu rivoyatni ayni oyat uchun sababi nuzul sifatida qayd etgan²⁸.

Ibn Xalifa Ulyaviy ham sababi nuzulga oid “Jome’ an-nuqul fi asbob an-nuzul va sharhi oyatiha” (“جامع النقول في أسباب النزول وشرح آياتها”) nomli ikki jilddan iborat asar yozgan²⁹. Muallif ushbu asarda Qur’on oyatlarining nozil bo‘lish sabablari bilan bog‘liq o‘zigacha mavjud fikrlarni bir orada jamlagan. Shuni ham aytish kerakki,

²⁵ Abdulfattoh Abdulg‘ani Muhammad Qozi. Asbob an-nuzul an as-sahoba va-l-mufasssirin. – Bayrut: Dor an-nadva al-jadiyda, 1408/1987. – B. 23.

²⁶ Haj surasi 37-oyat.

²⁷ Asbob an-nuzul an as-sahoba va-l-mufasssirin. – B. 149.

²⁸ Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on. – Istanbul: Dor al-Mezon, 2005–2011. – J. IX. – B. 381.

²⁹ Ibn Xalifa Ulyaviy. Jome’ an-nuqul fi asbob an-nuzul va sharhi oyatiha. – Riyod: Matobi’ al-ishi’o’i, 1404/1983. – I–II j.

asardagi ma'lumotlar tekshirilmasdan va taqiq qilinmasdan turib berilgani bois o'quvchi unda saralanmagan naqlar yig'indisiga duch keladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qur'on oyatlarining nozil bo'lish sabablari haqida yozilgan asarlar deyarli umumiy bir nom ostida, ya'ni "Asbob an-nuzul" nomi bilan yozilgan. Zamonaviy davr izlanuvchilarining tadqiqotlari asosan o'zlarigacha mavjud bo'lgan manbalar tahlilidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tavsifi / tarjimon va tafsir muallifi A.Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – 624 b.
2. Abdulfattoh Abdulg'ani Muhammad Qozi. Asbob an-nuzul an as-sahoba va-l-mufassirin. – Bayrut: Dor an-nadva al-jadiyda, 1408/1987. – 262 b.
3. Abdulhay ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Imod Hanbaliy. Shazarot az-zahab fi axbar man zahab. – Bayrut: Dor Ibn Kasir, 1406/1986. – I–X j.
4. Abdurahmon ibn Amjid Husayn. Asbob an-nuzul. PhD dissertatsiyasi. Islomobod xalqaro islom universiteti. – Islomobod, 1438/2017. – 69 b.
5. Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. Asbobu nuzul al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1411/1991. – 568 b.
6. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on. – Istanbul: Dor al-Mezon, 2005–2011. I – XVIII j.
7. Ahamad ibn Ali Ibn Hajar Asqaloni. Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – Dammom-Saudiya Arabistoni: Dor Ibn al-Javziy, 1417/1997. – I–II j.
8. Badriddin Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1376/1957. – I–IV j.
9. Hammod Abdulxoliq Hulva. Asbobu nuzul al-Qur'on masodiruha va manohijuha. – Amman: Maktabat at-tali'a, 1980. I–II.
10. Hoji Xalifa. Kashf an-zunun an asomiy al-kutub va-l-funun. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy. Nashr yili ko'rsatilmagan. – I–II j.
11. Ibn Bashkuvol / Qosim Xalaf Ansoriy ibn Abdulmalik. As-Silat. – Qohira: Maktabat al-xonijiy, 1374/1955. – 661 b.
12. Ibn Xalifa Ulyaviy. Jome' an-nuqul fi asbob an-nuzul va sharhi oyatiha. – Riyod: Matobi' al-ishi'o'i, 1404/1983. – I–II j.
13. Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Ad-Dur al-mansur fi tafsir al-ma'sur. – Bayrut: Dor al-fikr, 1432/2011. – I–VIII j.
14. Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1429/2008. – 832 b.
15. Moturidiy. Ta'vilot. – I–XXX j.

16. Muqbil ibn Hodiyy Vodi'iy. As-Sahih al-musnad min asbob an-nuzul. – San'o-Yaman: Maktabat San'o al-asriyya, 1425/2004. – 286 b.
17. Salohiddin Xalil ibn Oybak Safadiy. Al-Vofiy bi-l-vafayot. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy, 1420/2000. – I–XXIX j.
18. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyaru a'lom an-nubalo. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 1402/1982. – I–XXIX j.
19. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Al-Ibar fi xabar man g'abar. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1405/1985. – I–IV j.
20. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Tarix al-islom. – Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy, 1410/1990. – I–LII j.
21. Shamsiddin Muhammad ibn Ali Dovudiy. Tobaqot al-mufassiriyn. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983. – I–II j.
22. Umar Rizo Kahola. Mu'jam al-muallifin. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy, 1376/1957. – J. XII. – I–XV j.

CASES IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

*Jamila Aliyevna Buranova,**PhD, Assoc. Department of Russian Language and Literature
of Karshi State University**Dilnoza Dilshodovna Normamatova,**master's degree, 2nd year, majoring in linguistics (Russian language)*

Аннотация. В статье рассматривается грамматическая категория падежа имени существительного в русском и узбекском языках. В первой части исследования даются обобщенные теоретические выводы русских лингвистов категории падежа в русском языке. Во второй части статьи исследуется категория падежа в узбекском языке. В конце даются общие выводы по сравнительному анализу категории падежа в русском и узбекском языках.

Ключевые слова: грамматическая форма, имя существительное, окончание, падежная форма, послеслоги, форма слова.

Annotation. The article considers the grammatical category of the noun case in the Russian and Uzbek languages. Russian linguists' generalized theoretical conclusions of the category of case in the Russian language are given in the first part of the study. The second part of the article examines the category of case in the Uzbek language. At the end, general conclusions are given on the comparative analysis of the category of case in the Russian and Uzbek languages.

Keywords: grammatical form, noun, ending, case form, afterwords, word form.

The authors of the textbook Modern Russian Language P. A. Lekant, E. I. Dibrova, L. L. Kasatkin and others propose the following classification: “Case is an inflectional category of nouns, expressing one or another relationship of the object denoted by the noun to other objects, actions, signs.

In modern Russian, the category of case is formed by the opposition of six cases: nominative, genitive, dative, accusative, instrumental and prepositional” [1, P. 261].

In the textbook edited by N.S. Valgina gives the following concept about the category of case of a noun: “A noun, depending on the functions it performs in a sentence, changes according to cases. Case is a grammatical category that shows the syntactic role of a noun and its relationship with other words in a sentence. Changing the same word according to cases and numbers is called declension” [3, – P. 117]. N.S. Valgina classifies the cases of the Russian language into six groups: nominative, genitive, dative, accusative, instrumental and prepositional. Except for the nominative, all other five cases are called indirect. In modern Russian, the

prepositional case is always used with a preposition; all other indirect cases can be used both with and without a preposition.

The above judgments regarding the category of case of a noun in the Russian language show that it is a category that changes the form of a word and is necessary to express the grammatical relationship of a noun to other words in a phrase and sentence.

Cases in the Uzbek language have certain similarities and differences compared to Russian ones. Uzbek is an inflected language. This means that most prepositions (in, on, from, etc.) are expressed in Uzbek through affixes (they are also often called suffixes). These affixes are essentially called cases.

There are six cases in the Uzbek language, as in Russian: 1) Nominative, 2) Genitive, 3) Dative, 4) Accusative, 5) Locative, 6) Ablative

Nominative (main) case. It indicates the subject of a sentence and is very easy to learn. The nominative case represents the root word without modification. In the sentence "Men bozorga boraman." ("I go to the market.") men (I) is the nominative case and the word in this case is identical to the original word, men. This is always the case with the nominative case and therefore you can forget about it.

Genitive (definitive) case. It defines a membership relation (review Lesson 11) and has the form +ning. This affix is attached to a noun that means "owner." In most cases, the genitive case requires adding a possessive suffix to the noun being "possessed." For example, "U mening qizim." ("She's my daughter.") or "Qizning ismi Zuhra." ("The girl's name is Zuhra.") In these examples, the genitive case is mening (mine) and qizning (girl's).

Dative (directive) case. It has the form +ga and is translated by the prepositions "in", "on", etc. In the sentence "Men bozorga boraman." ("I go to the market.") dative case - bozorga (to the market). Or in "Siz uyga borasiz." ("You are going home.") in the dative case uyga (home).

Accusative. It acts as a direct object and has the form +ni. In the sentence "Zuhra is eating an apple." ("Zuhra olmani yeydi.") "apple" is a direct and specific object (it is clear which apple we are talking about) and is translated into the Uzbek language in the accusative case. In the sentence "Zuhra (usually) eats an apple." ("Zuhra olma yeydi.") "apple" ("olma") is a direct object, but not a specific one, but any apple, so it will not be the accusative case.

Ablative case. It can be roughly translated with the preposition "from". The case takes the form +dan. As an example: "U Rossiyadan." = "He's from Russia."

Locative case. Translated into Russian with the prepositions "in", "on", etc. and means the place or time of action. In Uzbek it has the affix +da. For example: "I'll leave at 3 o'clock." = "Men soat uchda boraman." "He is at school." = "U maktabda".

Thus, it can be noted that the cases of the Russian and Uzbek languages have certain similarities and differences: in the Russian cases there are no initial and local cases, which are characteristic of the Uzbek language, and in the Uzbek language there are no instrumental and prepositional cases. In addition, some endings of cases are replaced by postsyllables and other cases. They also have their own rules when translating.

Literature:

1. Modern Russian language: textbook. for university students studying specialties. Philology / P. A. Lekant, E. I. Dibrova, L. L. Kasatkin and others; edited by P. A. Lekant. - 4th ed., stereotype. - M.: Bustard, 2007. 557, [3] p.
2. Modern Russian language. Part 2: Textbook / Edited by E.M. Galkina-Fedoruk. - ed., Moscow University, 1964. – P.47.
3. Modern Russian language: Textbook / Edited by N.S. Valgina. - 6th ed., revised. – M.: Logos, 2002, 528 p.
4. Modern Russian language: Textbook. for philol. specialist. Union Universities and ed. rep./A.V. Dudnikov - M.: Vys. school, 1990, 424 p.
5. Uzbek Tili. (Makhsus yʻrta yʻkyv yurtlarining rus gruppalari uchun qʻllanma.) / Akbarov M., Eshonkulov Y. – T.: “Okituvchi”, 1978, 216 b.
6. Uzbek Tili. (Pedagogy institutlarining rus gruppalari uchun kullanma) / M. Akbarov, E. Azlarov, A.A. Klimenko. – T.: “Okituvchi”, 1967, 226 b.
7. Gozirgi Uzbek Adaby Tili. 1 kism. (Pedagogy institutlarining philology faculty studentlari uchun darslik) / Sh. Shoabdurahmonov, M. Askarova, A. Khozhiev, I. Rasulov, Kh. Donierov. – T.: “Okituvchi”, 1980, 447 b.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98>
9. <https://yep.uz/2020/05/padezhi-v-uzbekskom-jazyke-urok-32/>

GEODETIC WORKS IN COMMUNICATION OBJECTS

Ravshanov Rizamat Rustam ugli

Shakhrisabz College of Tourism and Cultural Heritage

Abstract. This article explores the significance of geodetic works in the construction and operation of communication objects in Uzbekistan. Geodetic surveys play a vital role in ensuring precision during the planning, construction, and monitoring stages of communication infrastructure such as telecommunication towers, fiber-optic networks, and satellite stations. The study highlights modern geodetic technologies, including GNSS, LiDAR, and UAVs, as well as their integration with GIS for enhanced planning and efficiency. Challenges such as diverse terrain, limited resources, and data integration are also addressed. The article provides insights into the importance of geodetic works in advancing Uzbekistan's communication infrastructure and supporting its digital transformation goals.

Keywords: geodetic works, communication infrastructure, Uzbekistan, GNSS, GIS, LiDAR, fiber-optic networks, telecommunication towers, digital transformation, geodetic technologies

INTRODUCTION

The development of communication infrastructure is a cornerstone of economic progress and social integration in Uzbekistan. With rapid urbanization and digitalization, geodetic works have become an indispensable element in constructing and maintaining communication facilities such as fiber-optic networks, telecommunication towers, and satellite ground stations. The President's Decree No. PQ-4699, issued on April 28, 2020, aimed at developing Uzbekistan's digital economy, emphasizes the importance of modernizing communication systems. Geodetic works ensure precision in planning, installation, and operation of such facilities, contributing to sustainable and efficient infrastructure.

This article explores the role of geodetic works in communication objects in Uzbekistan, discussing their stages, methodologies, and contributions to the country's technological landscape.

MATERIALS AND METHODS

Geodetic works involve measuring and mapping the Earth's surface to facilitate the design, construction, and operation of infrastructure projects. In the context of communication facilities, these works ensure the accurate placement of structures, optimal alignment of networks, and compliance with safety standards. Their importance lies in the following aspects:

- **Precision in Design and Layout:** Accurate geodetic surveys prevent misalignments and ensure proper placement of communication objects, minimizing future operational issues.

- **Terrain Analysis:** Detailed topographic maps help in identifying suitable locations for communication towers, avoiding interference, and maximizing signal coverage.

- **Integration with GIS:** Modern geodetic methods involve Geographic Information Systems (GIS) to enhance planning and management of communication networks.

RESULTS AND DISCUSSION

Stages of Geodetic Works in Communication Objects

1. **Preparatory Stage**
 - o Collection of existing geodetic data and maps.
 - o Identification of project requirements and terrain features.
 - o Selection of geodetic equipment and technology (e.g., GPS, Total Stations, UAVs).
2. **Field Surveys**
 - o Conducting detailed topographic surveys to map the project site.
 - o Performing geodetic leveling to establish elevation references.
 - o Using Global Navigation Satellite Systems (GNSS) for high-precision coordinates.

Geodetic works in Uzbekistan are increasingly adopting modern technologies to improve efficiency and accuracy:

- **Satellite-Based Measurements:** GNSS technology allows high-precision geodetic measurements essential for aligning communication objects.

- **LiDAR and UAVs:** These technologies provide detailed topographic data for difficult-to-access areas.

- **Geodetic Software:** Tools like AutoCAD, ArcGIS, and specialized geodetic applications streamline data processing and analysis.

Despite advancements, several challenges remain in implementing geodetic works for communication facilities in Uzbekistan:

- **Terrain Diversity:** Uzbekistan's varied topography, including mountains and deserts, complicates geodetic operations.

- **Resource Limitations:** The availability of modern geodetic equipment and trained professionals is limited in remote regions.

- **Data Integration:** Incorporating geodetic data into existing infrastructure management systems remains a work in progress.

• A notable example of geodetic applications in Uzbekistan is the expansion of fiber-optic networks under the "Digital Uzbekistan 2030" program. Geodetic surveys ensured the optimal routing of cables, avoiding natural and man-made obstacles. High-precision GNSS equipment was used to map underground utilities, reducing risks during excavation and installation.

Aspect	Outcome
Accurate mapping	Reduced installation errors
Optimized routing	Cost savings and faster implementation
Monitoring and updates	Real-time adjustments to the network plan

CONCLUSION

Geodetic works are critical to developing Uzbekistan's communication infrastructure, ensuring accuracy, efficiency, and sustainability. From the design of telecommunication towers to the installation of fiber-optic cables, geodetic methods enable precise planning and execution. By addressing existing challenges and leveraging modern technologies, Uzbekistan can further enhance its geodetic capabilities, contributing to the nation's digital transformation goals.

The integration of geodetic works with advanced technologies like GIS and UAVs promises to streamline infrastructure development. As Uzbekistan continues its journey towards a digitally connected future, geodetic works will remain a backbone of the country's communication infrastructure projects.

REFERENCES

1. Karimov, A. (2021). Modern Geodetic Techniques for Infrastructure Development. Tashkent: Ma'naviyat Publishing.
2. Smith, J. (2018). Geodetic Applications in Communication Systems. London: Routledge.
3. Petrov, V. I. (2019). Geodesy and Its Role in Telecommunications. Moscow: Geodetic Press.
4. Uzbek Academy of Sciences (2020). Geodesy and Infrastructure: Perspectives for Uzbekistan. Tashkent: UzScience.
5. Ivanov, P. (2017). GNSS and GIS Integration for Geodetic Works. Saint Petersburg: Technical University Press.

ЁШЛАР ЎРТАСИДА ГИЁХВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ АНИҚЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Захидов Ибрагим Анварович
мустақил изланувчи

Аннотация: Мақолада ёшлар ўртасида гиёхвандлик воситалари ва психотроп моддалар ҳамда кучли таъсир қилувчи дориларнинг қонунга ҳилоф равишда айланиши билан боғлиқ ҳолатларни аниқлаш ва қарши курашиш амалиёти ва мазкур соҳани тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар таҳлил қилинган ва илмий асосланган таклифлар берилган.

Калит сўзлар: гиёхвандлик, синтетик, лаборатория, психотроп, восита, модда.

АНАЛИЗ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ РАСКРЫТИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАРКОТИЧЕСКИМИ СРЕДСТВАМИ И ПСИХОТРОПНЫМИ ВЕЩЕСТВАМИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В статье анализируется практика выявления и противодействия ситуациям, связанным с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных веществ и сильнодействующих средств среди молодежи, а также нормативно-правовые документы, регулирующие данную сферу, и приводятся научно обоснованные предложения.

Ключевые слова: лекарственное средство, синтетическое, лабораторное, психотропное, средство, вещество.

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish. Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi.

tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash. Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar

namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakubjon Usmanov, Ikromova Komila Hamidullo qizi //Use of Innovative Technologies in Teaching Electrical Engineering// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 97-99 page.
2. Tursunboy Axmedov, Siddikova Ranoxon Abdulxay qizi, Xusanova Lobarxon Murodovna //Basics of Wood Materials and Woodworking Technology// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 100-102 page.
3. Salim Madrahimovich Otajonov, Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna //Polymer and Composition Materials// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 103-106 page.
4. Otazhonov S.M., Yunusov N., Qakhkhorova B. //DEFORMATION CHARACTERISTICS OF PbTe-Te POLYCRYSTALLINE FILMS// SCIENCE AND WORLD International scientific journal № 3 (103), 2022. 27-31 page
5. Отажонов С.М., Юнусов Н., Қаххорова Б //ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК PbTe-Te// Деформационный наука и мир 2022 №3.
6. Otazhonov S.M., Botirov K.A., Khalilov M.M., Yunusov N //EFFECT OF DEFORMATION ON DEFECT MIGRATION IN PHOTSENSITIVE THIN FILMS CdTe: Ag AND PbTe// Science and World International scientific journal № 6 (94) июн 2021
7. Отажонов С.М., Ахмедов Т., Усмонов Я., Ботиров К.А., Халилов М.М., Юнусов Н. //ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕГО НАПРЯЖЕНИЯ НА ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК PbTe С ИЗБЫТКОМ ТЕЛЛУРА И СВИНЦА// Science and World International scientific journal. 2021. № 3 (91). 18-22 page.
8. T Akhmedov , S M Otajonov, Ya Usmonov, M M Khalilov, N Yunusov and A K Amonov // Optical properties of polycrystalline films of lead telluride with distributed stichiometry// Journal of Physics Conference Series/ 1889(2021)022052 doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022052. 1-8 page

10. E Gaubas, T Čeponis, D Dobrovolskas, J Mickevičius, J Pavlov, V Rumbaškas, JV Vaitkus, N Alimov, S Otazonov //Study of polycrystalline CdTe films by contact and contactless pulsed photo-ionization spectroscopy// Thin Solid Films. 2018/8/30. 231- 235 page.
11. T Akhmedov, SM Otazonov, MM Khalilov, N Yunusov, U Mamadzhanov, NM Zhuraev //Effective dielectric permeability and electrical conductivity of polycrystalline PbTe films with disturbed stoichiometry// Journal of Physics: Conference Series 2021/12/1 052008/
12. С Отажонов, К Ботиров, М Халилов, Н Юнусов, М Абдумаликова //СПЕКТРЫ ПОГЛОШЕНИЯ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК РВТЕ С ИЗБЫТКОМ ТЕЛЛУРА// InterConf 2021/3/3. 954-961 page.
13. Салим Отажонов, Кодир Ботиров, Пахлавон Мовлонов, Нурзод Юнусов //ИЗМЕНЕНИЕ ФОТОЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ГЕТЕРОСТРУКТУРЫ НА ОСНОВЕ Cu₂-x Te-CdTe ПРИ ТЕРМИЧЕСКОЙ ОБРОБОТКЕ// InterConf 2021/2/12/
14. СМ Отажонов, МХ Рахмонкулов, ПИ Мовлонов, Н Юнусов //Влияние термообработки на фотоэлектрические свойства гетероструктуры Cu₂-xTeCdTe// Science, 2021. 89.
15. Салим Отажонов, Кодир Ботиров, Бахтиёр Раззоков, Нурзодбек Юнусов //ИССЛЕДОВАНИЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ И ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ФОТОПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ГЕТЕРОПЕРЕХОДА Cu₂-x Te–CdTe// InterConf 2020/12/12.
16. S Otazonov, N Alimov, P Movlonov, K Botirov //CdTe-SiO₂-Si-Al HETEROSTRUCTURE PHOTSENSITIVITY CONTROL WITH DEEP IMPURITY LEVELS UNDER EXTERNAL FACTORS// Euroasian Journal of Semiconductors Science and

TRANSFORMATORLAR VA TEXNIK FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

*Qosimova Nazokatxon - Farg'ona davlat universiteti II kurs magistranti,
Sotvoldiyeva Xurshidaxon - Farg'ona davlat universiteti II kurs magistranti,
Shodmonov X. - FarDu Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti*

Annotatsiya: Texnik ta'limda, ayniqsa elektr texnikasi va transformatorlar kabi murakkab tizimlarni o'qitishda, an'anaviy metodlardan tashqari, interfaol metodlarning qo'llanilishi o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Transformatorlarni o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash, talabalarga texnik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va real ish sharoitlariga moslashish imkonini yaratadi. Ushbu maqolada interfaol metodlarning texnik fanlarda, xususan, transformatorlarni o'qitishda qanday samarali qo'llanishi va ularning o'quv dasturlari hamda metodik ko'rsatmalar orqali ta'lim jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, muammoli vazifalar, integratsiya, modulyatsiya, baholash tizimi.

Annotation: In technical education, especially in the teaching of complex systems such as electrical equipment and transformers, the use of interactive methods, in addition to traditional methods, significantly increases the effectiveness of teaching. The use of interactive methods in the training of transformers allows students to acquire technical knowledge in depth and adapt to real working conditions. This article analyzes the effective use of interactive methods in technical sciences, in particular, in the teaching of transformers, and their integration into the educational process through curricula and methodological guidelines.

Key words: interactive methods, problem tasks, integration, modulation, evaluation system.

Transformatorlarni o'qitishdagi interfaol metodlarning mohiyati. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ikki tomonlama faol muloqotni talab qiladigan, talabalarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga, savollar berishiga va muammolarni birgalikda hal qilishiga imkon yaratadigan ta'lim usullaridir. Texnik fanlarda, ayniqsa transformatorlar kabi murakkab qurilmalarni o'rganishda, interfaol metodlar nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, o'quvchilarni amaliy ishga tayyorlashga ham yordam beradi. Misol uchun, interfaol metodlarning ba'zi turlariga qaraydigan bo'lsak:

Группли ишлар ва мунозаралар: Бу методлар о'қувчиларнинг бир-бирлари билан билим алмашishига, турли қарашларни тushунishига ва муаммоларни биргаликда hal қilishига имкон бeради. Трансформаторлар ва уларнинг ишлaш принциплари ҳақида гурuhlи муҳокaмa o'tkazиш o'қувчиларга тushunchаларни mustahkamlashда yordam бeради.

Муаммoli vazifalar: Муаммoli vazifalar, o'қувчиларни амалиyотга тayyorlashда samaralidir. Masalan, трансформаторларни тahlil қilиш, xatolikларни aniqlash ва уларни bartaraf etиш vazifalari o'қувчиларнинг texник ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyiha asosida o'qitиш: O'қувчиларни muayyan loyiha yoki topshiriq билан shug'ullanishга undash. Masalan, трансформаторнинг ишлaш printsiplarini тushунishга қаратилган амалиy mashg'ulotлар o'қувчиларга texник таjribalar орқали o'qishни osonlashtiradi.

Трансформаторларни o'qitишнинг samaradorligini oshiriш uchun o'қув dasturlari interfaol metodларга moslashtirilishi kerak. O'қув dasturlarini ишлaб chiqишда quyidagi tamoyillarnи hisobга olish lozim:

Konteksga moslashuvchanlik: O'қув dasturi трансформаторларнинг texник xususiyatlari va иш sharoitlarini hisobга olган holda tuzilishi kerak. Interfaol metodларни qo'llashда, o'қувчилар o'z bilimlarini турли vaziyatlarda sinab ko'rishlari zarur.

Амалиy mashg'ulotлар va laboratoriya ишлари: Трансформаторлар билан bog'liq nazariy bilimларни mustahkamlash uchun амалиy mashg'ulotлар va laboratoriya ишлари o'zaro integratsiya қilinishи kerak. O'қув dasturiga амалиyotларни qo'shиш, o'қувчиларга real sharoitда ишлaш imkonini бeради.

Modulyatsiya va adaptiv o'qув dasturi: O'қув dasturi modulга bo'linishi va o'қувчиларнинг o'zlashtiriш darajasiga moslashuvchan bo'lishи kerak. Bunda, o'қувчиларни турли darajalarda muammolarни hal қilишга yo'naltiradigan interfaol metodлар asosida o'qitиш samarali bo'ladi.

O'қув dasturlarida interfaol metodларни samarali qo'llash uchun darslikлар va qo'llanmalar ham yangilanib, didaktik materialлар talabalarga o'z-o'zini sinovdan o'tkazиш, guruhли ишlarda qatnashиш va praktikumlarda амалиy ko'nikmalarни rivojlantiriш uchun maxsus ишлaб chiqиlishи kerak.

Трансформаторларни o'qitишда metodик ko'rsatmalar - interfaol metodларни qo'llashда o'qituvчиларни qo'llab-quvvatlovchi, darsларни tashkil etишда yordam бeрадиган asosiy hujjatlardir. Quyidagi metodик ko'rsatmalar трансформаторларни o'qitишда interfaol metodларни muvaffaqiyatли tatbiq etишда muhim ahamiyatга ega ekanligи ko'rsatilgan:

- O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi: Interfaol metodlarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchilarni tayyorlash zarur. O'qituvchilar uchun interfaol metodlarni o'z ichiga olgan maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish, ular o'quvchilarga qanday samarali o'qitishni ko'rsatishi uchun kerakli bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

- Dars rejalari va metodik materiallar: Har bir dars uchun o'qituvchi interfaol metodlarni qo'llashni rejalashtirishi kerak. Darslarda guruhli ishlar, muammoli vazifalar va amaliy mashg'ulotlar kiritilishi kerak. Dars uchun metodik materiallar interfaol faoliyatga yo'naltirilgan, talabalar o'rtasida muloqot va jamoaviy ishlarni rivojlantiruvchi bo'lishi zarur.

- Baholash tizimi: Interfaol metodlarning samaradorligini baholash tizimi o'qituvchilar uchun muhim bo'lib, talabalar faoliyatini baholashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar ham inobatga olinishi kerak.

1. Interfaol metodlar transformatorlarni o'qitishda quyidagi afzalliklarga ega: Faol o'qish va o'ylash jarayoni: Talabalar o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etishga undaladi. Bu, o'qish jarayonida passiv ishtirokchilar o'rniga faol ishtirokchilarga aylanishlariga imkon yaratadi.

2. Bilimlarning amaliy qo'llanilishi: Interfaol metodlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa ularning texnik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Talabalar o'rtasida muloqot va hamkorlikni oshirish: Interfaol metodlar guruhli ishlarni rag'batlantirib, talabalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Bu, transformatorlarning ishlash prinsiplari va ularning texnik holatini tushunishda yordam beradi.

Transformatorlarni o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. O'quv dasturlari va metodik ko'rsatmalarni interfaol usullar bilan boyitish, ta'lim sifatini oshiradi, talabalarni real ish sharoitlariga tayyorlashga yordam beradi. Interfaol metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi va texnik fanlarning samarali o'qitilishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, C. A. & Dill, K. E. "Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life." (2000).
2. Berg, B. L. "Qualitative research methods for the social sciences. (2001).
3. Peterson, J. L. & Hiltz, S. R. "Teaching with Technology: Creating Interactions." (2001).

4. Paulo, L. & Tavares, D. "Interactive learning methods in teaching engineering students." (2012).
5. Vygotsky, L. "Mind in society: The development of higher psychological processes." (1978).
6. Felder, R. M., & Brent, R. "Active learning: An introduction." (2009).
7. Gokhale, A. A. "Collaborative learning enhances critical thinking." (1995).
8. Kuhlthau, C. C., & Maniotes, L. K. (2012). "Guided Inquiry: Learning in the 21st Century." (2012).
9. Hake, R. R. "Interactive-engagement versus traditional methods: A six-thousand-student survey of mechanics test data for introductory physics courses." (1998).
10. Shulman, L. S. "Those who understand: Knowledge growth in teaching." (1986).

ZAMONAVIY ASBOB VA JIHOZLARNI “LEARNING APPS” DASTURI YORDAMIDA O‘QITISH

X. Sotvoldiyeva, N Ortiqova, S. Otajonov

Farg‘ona davlat universiteti Texnologik ta’lim kafedrası magistranti

Farg‘ona davlat universiteti Texnologik ta’lim kafedrası magistranti

Farg‘ona davlat universiteti fizika matematika fanlari doktori, professor

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada texnologiya darslarida zamonaviy asbob va jihozlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish usullari ko‘rsatilgan. “LEARNING APPS” dasturi yordamida tuzilgan topshiriqli mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantirilgani ko‘rsatilgan. Bu esa o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga zamin yaratadi, xato va kamchiliklarini o‘zlari bilib, qaytadan to‘g‘rilash imkoniga ega bo‘lishiga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: “LEARNING APPS”, sahifa, ilovalar, tikuv mashinasi, viktorina, axborot texnologiyasi.

ABSTRACT

This article shows the methods of teaching using information technologies in teaching modern tools and equipment in technology lessons. It is shown that task-based lessons created using the “LEARNING APPS” program develop students' imagination. This creates a basis for students' creative thinking, allows them to recognize their mistakes and shortcomings and have the opportunity to correct them.

Key words: “LEARNING APPS”, page, apps, sewing machine, quiz, information technology.

KIRISH

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda [1].

O‘zbekistonda 2023-yil "Insonga e’tibor va sifatli ta’lim" yili deb e’lon qilinishi ta’limga ahamiyat berilayotganidan darak beradi. “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li. Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak. Biz kelgusi yil Davlat dasturiga xalqimiz ko‘targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritamiz. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligimizdan faol bo‘lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so‘rayman”, — deb ta’kidlar ekan davlatimiz rahbari biz o‘qituvchilar uchun yana bir bor yuksak ishonch berayotganidan darak beradi. Buning uchun biz

zamon bilan hamnafaslikda ta'lim sifatini oshirish uchun yangidan yangi ta'lim texnologiyalarini kashf qilishimiz kerak [2].

Oliy ta'lim muassasalarida hamda maktab ta'limida zamonaviy asbob va jihozlarni "learning apps" dasturi yordamida tuzilgan darslar bilan o'qitish talabalarda qator foydali ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. Ularda ustachilik va tikuvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishi ortadi va texnik ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Zamonaviy asbob va jihozlari fanini " LearningApps " dasturi yordamida tuzilgan darslar bilan o'qitish haqida so'z yuritishdan avva LearningApps o'zi nima?"- degan savolga javob beramiz.

LearningApps - bu ilovalar deb ataladigan kichik, interaktiv, multimedia o'quv modullari yordamida o'rganish va o'qitish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun bepul, veb-asoslangan mualliflik dasturi va platformasi . Mavjud formatlar orasida bir nechta tanlov , mos mashqlar yoki yopilish testlari mavjud. O'quv modullari foydalanuvchilarning o'zlari tomonidan ham onlayn tarzda yaratilishi yoki o'zgartirilishi mumkin. O'quv modullarini o'quvchilar bilan veb-havola yoki QR-kod orqali baham ko'rish yoki HTML kodi orqali to'g'ridan-to'g'ri o'quv platformasi , wiki yoki blogga joylashtirish mumkin. ^[1]

2015 yilda Shveytsariyaning Olten shahrida joylashgan LearningApps - interaktiv o'quv modullari notijorat tashkilotiga asos solingan. Assotsiatsiyaning maqsadi uzoq muddatli, notijorat faoliyati va shu nomdagi birja platformasining yanada rivojlanishini ta'minlashdan iborat. ^[2]

LearningApps 2009 va 2012 yillar oralig'ida Bern ta'lim universitetida (Michael Hielscher, Verner Hartmann) Iogannes Gutenberg Mayns universiteti (Frans Rothlauf) va Zittau/Görlitz universiteti (Xristian) bilan hamkorlikda tadqiqot va ishlanma loyihasi doirasida yaratilgan . Vagenknecht). Loyiha g'oyasi va texnik amalga oshirilishi ProgrammingWiki platformasiga (Kristian Vagenknecht, Maykl Hielscher) va o'quv muhitiga mos keladigan mualliflik vositalarining Questix va Matchix prototiplariga (Markus Sauter, Ruedi Arnold, Verner Xartmann) qaytadi. 2014 yilda LearningApps Myunxendagi Studio im Netz eV assotsiatsiyasi tomonidan "Maxsus mukofot" nominatsiyasida "Pädi 2014" mukofotiga sazovor bo'ldi ^[3] .

LEARNING APPS dasturi onlayn tarizda ishlaydi bizga ma'lumki respublikamizning barcha hududlari internet tarmog'i bilan taminlangan shuni inobatga olib maktablarda darslarni yanada qiziqarli bo'lishi uchun shu usulni tanlab oldim. Avallo komputerlarimizni internet tarmog'iga ulaymiz va GOOGLE qidiruv tizimidan LEARNIG APP oynasini ochamiz, dastur ishga tushishi bilan shu ko'rnish hosil bo'ladi



1-rasm learning apps dasturi oynasi.

Bu dastur aynan o'qituvchilarga mosligi va darslarni mazmunli va qiziqarli tashlik etishi bilan barcha o'quvchilarni o'ziga birdek jalb qiladi. Yana bir yaxshi tomoni o'zbek tilida ham foydalansa bo'ladi. Dasturni ishga tushirib bo'lgach Dastur menyusida boshqarish panellari: til(globus logotipi), fayl, o'zgartirish, darsliklar, LearningApps loyihasi bo'limlaridan tashkil topgan. O'zingizga kerak bo'lgan tilni globus logotipini bosib tanlab olishingiz mumkin.


Dastur oynasi ochilgadan so'ng o'zimizga kerakli bo'lgan tilni talab olamiz va o'z shaxsiy kabinetimizni yaratib olamiz ilovalar qatorining o'ng tomonidan menimga sahifamga kiramiz va o'zimizning electron manzilimiz va parollari yordamida menimga sahifam bo'limini ochib olamiz. Bizga bu nima uchun kerak deganda learning apps dasturida tuzgan barcha metotlarimizni saqlab borganmiz.

Avallo ilovalarni ko'rib chiqish bo'limida turli mavzularga oid viktorinalar tashkillangan bo'ladi, ilovalarni yaratish bo'limiga kiramiz va o'zimiz hohlaga va bizning mavzuga mos bo'lgan viktarinani tanlab olamiz.



2- rasm. Learning apps dasturi ish stoli.

Ektranda turli hildagi viktorinalarimiz namoyon bo'ldi. Biz ular orasidan mos juftlikni tanglang viktorinasini olamiz. Bu metod turimiz rasm va matn ko'rinishida bo'lib, rasimga mos matini belgilashdan iborat bo'ladi. Ikkita juftlikni tagma-tag olib kelganda juftliklar birikadi ish ku ketma-ketlikda amalga oshiriladi va ish yakunlangach natijalar tekshirildi (3-a va b rasm).




3- A va B rasm. Learning apps dasturida ilova yaratish.


Yana bir metodimiz rasimga nom ber bunda bo'lsa darsni o'quvchilarga tushuntirish jarayonida qollash juda ham mos keladi, bu usulda darsni yada ham qulay va sodda tilda o'qitish mumkin. Viktarina ochiladi va fon uchun rasm tanlanadi uing qisimlariga belgilar qo'yib chiqiladi va bu belgilar qaysi matnga mos ekanligini to'g'ri topish ishlari amalga oshiriladi (4- Ava B rasm).

Ushbu dasturdan fantaziyasidan kelib chiqib ilova yoki web sahifadan yuklab olishi mumkin. Dastur yordamida barcha fanga oid bo'lgan mashq va topshiriqlarni qiziqarli qilib tuzish mumkin. Misol uchun matematik hisoblashlar, fizik sxemalar, texnologik xaritalarni tuzish mumkin. O'quvchilar mustaqil topshiriqni kompyuterda o'tirib bajarishi, xatolarini o'zi anglashi va topshiriqni boshidan bajarishi, birinchi bosqichni bajarmasdan keying bosqichlarga o'tib bo'lmasligi bilishi, tikuv mashinasi qismlarini kerakli joyga olib borib joylashtirishi, mashina qismlari nomlarini o'rganishi, tikuv mashinasi qismlarining joylashish tartibini bilishi dasturning metodik jihatini asoslaydi.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОЦЕНКА

Zamonaviy asbob va jihozlari fanidan tikuv mashinasining tuzilishini "LearningApps" dasturidan foydalanib topshiriqli dastur yaratdik. Topshiriq tikuv mashinasining qismlarini to'g'ri joylashtirish bo'lib, fonda tikuv mashinasining qismining nomiga mos bo'lgan rasmni sichqoncha yordamida ushlab martga olib boriladi sichqoncha bilan bosiladi. Ikkala qisim bir biri bilan birikadi va ish shu ketmaketlikda davom etadi. Barcha qismlarni to'g'ri joylashtirganda fonda tikuv mashinasining umumiy qisimlarini monlari bilan yozilgan tasvirlar paydo bo'ladi. Shunda o'qunchi topshiriqni yakunlaganini biladi. Jarayon yakunlangach ekranning o'ng tomonidagi tekshirish belgisi bosiladi va fonda "Barakalla topshiriqni to'g'ri bajardingiz" degan yozuv chiqadi.





4- A va B rasm. Learning apps dasturida viktorina o'yinlari.

Farg'ona viloyati bog'dod tumanidagi 20- maktab o'quvchilari o'rtasida eksperiment o'tkazdik. Fan nomi texnologik ta'lim bo'lib, zamonaviy asbob va jihozlardan tikuv mashinasining tuzilishini o'rgatish maqsadida "Learning apps"dan foydalanib topshiriqli dastur tuzdim va o'quvchilarda sinab ko'rdik. Kuzatishlar orqali quyidagi natijalarga erishdik:

1. O'quvchi mustaqil dastur bilan ishlay olishi;
2. Xato qilganda topshiriqni boshidan boshlashi;
3. Xato qilganda uni to'g'rilashning imkoni borligi;
4. Berilgan material yuzasidan tasavvurning hosil bo'lishi;
5. Topshiriqni individual bajarishi;
6. O'quvchi yuqori qiziqish bilan topshiriqni bajarishi;
7. Vaqtning tejallishi;

O'quvchi dasturdan qiyinchiliksiz foydalandi. Chunki ular avval kompyuter va uning qo'shimcha qurilmalaridan foydalanib kelishgan. Bundan tashqari informatika va axborot texnologiyalari fanlarini ham o'zlashtirishgan. Xato qilganda yana boshidan bajarish imkoni bo'lganligi sababli talabalarda qo'rquv va ikkilanish hisi yo'qoldi. Xato qilganda uni to'g'rilashning imkoni borligi sababli ularda xatodan xulosa chiqarish ko'nikmasi paydo bo'ldi. Shu bilan birga analiz qilishni ham o'rganishdi. Berilgan material yuzasidan grafik va rasmlar orqali talabalarda tasavvur hosil bo'ldi. Shuning uchun ham real elektr jihozini ko'rishganda bemalol qismlarni ajrat olishadi va nomlarini bilishadi. Dasturni o'quvchilarga tez ishga tushirib berishda, boshidan boshlashda va javoblarni taqqoslashda tezkor kalit klavishalardan foydalanildi. Buning natijasida ancha vaqt tejaldi va o'quvchilarning diqqati tarqalib ketmadi.

Har bir o'quvchi topshiriqni qiyinchiliksiz individual bajardilar. Bu esa mustaqil fikrlash qobiliyatini talabalarda sezilarli darajada oshirdi. o'quvchilar turli

xil vaqtlar oralig'ida topshiriqni balardilar. Natijalarni umumlashtirib o'rtachasini olganimizda 2-3 daqiqani tashkil etdi. Bu ananaviy darslarga nisbatan 4-5 daqiqani tejaganini aniqladik. Dastur yordamida boshqa murakkabroq va qiziqarliroq topshiriqlarni tuzish mumkin. Bu o'qituvchining ijodiy yondashuviga bog'liqdir. Dastur shartlari va ko'rinishini talabalarning qiziqishiga qarab o'zgartirib yangilab borish mumkin.

XULOSA

Bizga ma'lumki hozirgi zamon talabalarini darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'qituvchi uchun mashaqqatli ishdur. O'qituvchi o'z maqsadiga erishishi uchun masalaga kreativ yondashishi va o'quvchining atrof muhitga bo'lgan qiziqishini bilishi kerak. Zamonaviy o'quvchining axborot texnologiyalari vositalariga va o'yinlarga bo'lgan qiziqishi yuqori ekanlagi psixologlar tomonidan aytilmoqda. Dasturda o'yin bilan topshiriq birgalikda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi tikuv mashinasi qismlari nomlarini hamda ularning joylashish tartibini bilib oladi. Xato qilganda esa topshiriqni boshidan boshlaydi. Necha marta xato qilsa shuncha marta takrorlaydi va xotirani mustahkamlaydi. Tajribalar natijasida ananaviy darslarga nisbatan topshiriqli dastur orqali o'qitish vaqtni tejashini, xato qilishdan qo'rqmaslikni va mustaqil xatolar ustida ishlash ko'nikmasi hosil bo'lishiga turtki bo'ldi. Mavzularni dasturlardan foydalanib ko'proq o'qitilsa, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasi ortadi. Bu esa rivojlangan mamlakatlarning o'quvchilari bilan raqobatlasha oladigan kadrlar yetishib chiqishida zamin bo'la oladi.

ADABIYOTLAR ROYHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasinitasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Yurgen Vagner (muharrir), Verena Xekman (tahr.): Chet tillarni o'qitishda Web 2.0: Maktablar va universitetlar o'qituvchilari uchun amaliy kitob. Verlag W. Hülsbusch 2012, ISBN 3-86488-022-X (Ingrid Brabandning hissasi: Londonga maktab sayohatiga tayyorgarlik, 35–41-betlar)
3. Ilovaga e'tibor bering! Talabalarigizni jalb qilish uchun ilhomlantiruvchi internet vositalari va tadbirlar (Zakovatli o'qituvchi seriyasi). Chet tillarini o'qitishda Web 2.0: Maktablar va universitetlar o'qituvchilari uchun amaliy kitob. Tomas Strasser, nashriyotchi: Helbling Languages GmbH. 2012 yil noyabr, ISBN 3-85272-556-9
4. M. Hielscher, W. Hartmann, F. Rothlauf: LearningApps.org: Web 2.0 da multimedia va interaktiv o'quv modullari. In: Kompyuterlar + darslar. 89-son, 40–45-betlar, Fridrix Verlag, Seelze 2013 yil.
5. M. Hielscher, W. Hartmann, F. Rothlauf: Web 2.0 da raqamli, multimedia va interaktiv o'quv modullari uchun mualliflik vositasini ishlab chiqish. DeLFI 2013, E-Learning Kompyuter fanlari konferensiyasi, Informatika bo'yicha ma'ruza matnlari (LNI) - Gesellschaft für Informatik (GI) jild P-218, 203-214-betlar.

6. M. Sauter, O. Ott, V. Hartmann: MATCHIX - multimedia topshiriq mashqlari. DeLFI 2009 - Raqamli asrda o'rganish. 7-E-Learning konferensiyasi, Kompyuter fanlari jamiyati, Berlin, 2009. 259–269-betlar.

Veb havolalar

1. Learningapps.org - talabalarni faollashtiruvchi qurilish bloklarini o'zingiz yarating . Nemis-Fransuz instituti (dfi), Lyudvigsburg, Baden-Vyurtemberg davlat ta'lim serveri
2. Maykl Shtayner: LearningApps.org - multimedia, interaktiv o'quv modullari. medienimpulse – media ta'limga qo'shgan hissasi 50(2), 2012. doi : 10.21243/mi-02-12-15
3. Rémy Kauffmann, Baden kantonal maktabi: Tarix darslari uchun o'quv ilovalari. SwissEduc, 31 oktyabr, 2021 yil

TEXNIKA OLIY O'QUV YURLARIDA "MUHANDISLIK PSIXOLOGIYASI, FANINING AHAMIYATI

*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti **Yulchiyeva Zulfizarxon Nadjibullayevna***
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida ,pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) v,b dotsent **Ruzmetova Sayyoraxon Timurxanovna***
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabasi
Abdurahmonov Dadabek Tolib o'g'li

ANNOTATSIYA

Maqolada texnika oliy o'quv yurtlarida "Muhandislik psixologiyasi" fanining ahamiyati va uning o'quv jarayonidagi o'rni tahlil etilgan. Ushbu fan muhandislik sohasidagi inson omilini hisobga olgan holda, talabalar va mutaxassislarning psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Maqola, muhandislik psixologiyasining texnologiyalarni ishlab chiqish, jarayonlarni optimallashtirish, inson faoliyatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi rolini ko'rsatib beradi. Shuningdek, fan yordamida muhandislik sohasida yuzaga keladigan psixologik muammolarni hal qilish va inson-mashina tizimlarini samarali boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. Maqola, texnika sohasida ishlaydigan mutaxassislar uchun bu faning qanchalik muhim ekanini va uni o'qitishda qanday yondashuvlarni qo'llash kerakligini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: muhandislik psixologiyasi, texnika oliy o'quv yurti, psixologik xususiyatlar, inson-mashina tizimi, samaradorlik, psixologik muammolar, o'quv jarayoni.

Kirish

Muhandislik psixologiyasi – insonning texnik tizimlar bilan o'zaro aloqasini o'rganadigan fan bo'lib, texnika va muhandislik sohalaridagi tizimlarni samarali ishlatish uchun inson salohiyatini tushunish va uni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotdir. Bu soha texnika va ijtimoiy jarayonlarni o'zaro bog'lab, muhandislar uchun zarur bo'lgan psixologik bilimlarni taqdim etadi. Texnika oliy o'quv yurtlarida muhandislik psixologiyasining o'rganilishi ayniqsa muhim, chunki u talabalar va mutaxassislarning texnik tizimlar bilan ishlashdagi samaradorligini oshiradi, xavfsiz va samarali ish muhitini yaratadi.

Metodologiya

Mazkur maqolada texnika oliy o'quv yurtlarida "Muhandislik psixologiyasi" fanining ahamiyatini tahlil qilish uchun adabiyotlar tahlili, eksperimentlar va

anketalar yordamida o'rganish metodlari qo'llaniladi. Adabiyotlar tahlili orqali fan haqidagi mavjud ilmiy qarashlar va metodologiyalar o'rganiladi, eksperimentlar va anketalar esa talabalar orasida fan bilan bog'liq xulq-atvor va bilimlarni aniqlashga qaratilgan. Texnika oliy o'quv yurtlarida muhandislik psixologiyasi fanining o'rganilishi, talabalar va muhandislar uchun samarali, xavfsiz va psixologik jihatdan to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Odamlarning texnik tizimlarga ta'sirini o'rganish, mehnat unumdorligini oshirish, stressni boshqarish, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ko'plab sohalarda muhim ahamiyatga ega. Talabalar uchun bu fan nafaqat nazariy bilimlarni o'rganish, balki amaliyotda qo'llashni ham ta'minlaydi.

Natijalar

Texnika oliy o'quv yurtlarida "Muhandislik psixologiyasi" fanini o'rganishning bir necha asosiy afzalliklari mavjud. Birinchidan, bu fan muhandislik faoliyatini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Talabalar, shu bilan birga, o'zlarining texnik tizimlar bilan aloqalari va ishlashdagi psixologik qiyinchiliklar haqida yaxshiroq tushuncha hosil qiladilar. Ikkinchidan, muhandislik psixologiyasi fanini o'rganish, texnik qurilmalar va tizimlar bilan ishlashda talabalar va mutaxassislarning psixologik mustahkamligini oshiradi. Ular texnik xatoliklarning oldini olish, stressni boshqarish va samarali qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Uchinchidan, fan insonga asoslangan texnik yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa texnika sohasidagi inson resurslarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhandislik Psixologiyasining Xususiyatlari

1. **Inson va Texnika Tizimlarining Integratsiyasi:** Muhandislik psixologiyasining asosiy maqsadi — texnik tizimlar va insonlar o'rtasidagi optimal o'zaro aloqani o'rnatishdir. Ushbu fan insonning texnik qurilmalar bilan qanday ishlashini, texnik tizimlarning ish jarayonida qanday qilib insonga yordam berishini o'rganadi. Texnika tizimlarining inson ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilishi, samarali ishlashni ta'minlash uchun zarur.

2. **Xavfsizlikni Ta'minlash:** Muhandislik psixologiyasi xavfsizlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Texnik qurilmalar va muhandislik tizimlarining xavfsiz ishlashi uchun inson psixologiyasini o'rganish zarur. Xavfli vaziyatlarda odamlarning qanchalik to'g'ri qaror qabul qilishi, stress holatlarida o'zini qanday tutishi, texnik tizimlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, ish joyidagi avariylarni oldini olish va samarali ishlash uchun zarur.

3. **Mehnat Unumdorligini Oshirish:** Muhandislik psixologiyasining yana bir xususiyati mehnat unumdorligini oshirishga yo'naltirilganligi. Texnik tizimlarda ishlayotgan mutaxassislar uchun stressni boshqarish, to'g'ri motivatsiya yaratish,

jismoniy va ruhiy holatni normallashtirish muhimdir. Bu orqali ishchilar o'z ishlarini tez va samarali bajarishlari mumkin.

4. **Innovatsion Yechimlar va Yaratuvchanlikni Rivojlantirish:** Texnik yutuqlarni joriy etishda insonning yaratuvchanlik va innovatsion fikrlash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Muhandislik psixologiyasi bu jarayonda insonning kreativligini oshirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda psixologik omillarni inobatga olishni o'rgatadi.

5. **Qaror Qabul qilishda Psixologik Asoslar:** Muhandislik psixologiyasi qaror qabul qilish jarayonida psixologik omillarni hisobga olishga yordam beradi. Texnik tizimlarda tez va aniq qarorlar qabul qilish juda muhim. Insonning qaror qabul qilishidagi psixologik nuqtai nazar, tizimlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Muhandislik psixologiyasining o'rganilishi nafaqat talabalar uchun, balki ishlab chiqarish va texnik tizimlarni boshqarish uchun ham muhimdir. Bu fanning rivojlanishi texnik muhandislarning psixologik bilimlarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi, bu esa texnologik yutuqlarga erishish, xavfsizlikni ta'minlash va umumiy samaradorlikni oshirishga olib keladi. Bunday bilimlar, shuningdek, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etishda ham muhim rol o'ynaydi, chunki ular texnik jarayonlarni inson ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Texnika oliy o'quv yurtlarida muhandislik psixologiyasi fanini o'rganish, talabalar uchun muhandislik faoliyatini psixologik nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ko'plab psixologik qiyinchiliklarni engib o'tishlariga yordam beradi. Muhandislar tomonidan texnik tizimlar bilan ishlashda psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish, xavfsizlikni oshirish, mehnat unumdorligini va samaradorligini ta'minlash muhimdir.

O'quv jarayonida muhandislik psixologiyasini o'rganish, talabalarga texnik tizimlar bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda yordam beradi. Bu fan nafaqat talabalar uchun, balki ishlab chiqarish jarayonlarida ishlovchi mutaxassislar uchun ham zarurdir. Muhandislik psixologiyasining o'rganilishi mehnat jarayonlarida tezkor yechimlarni topishga va ish unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda texnik sohalarda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayoni davom etmoqda. Muhandislik psixologiyasi inson va texnik tizimlarning o'zaro aloqalarini chuqur o'rganib, yangi texnologiyalarni samarali qo'llashda psixologik jihatlarni inobatga olishni ta'minlaydi.

Texnika oliy o'quv yurtlarida "Muhandislik psixologiyasi" fanining ahamiyati katta. Bu fan muhandislar uchun psixologik bilimlarni taqdim etish, ularning texnik

tizimlar bilan o'zaro aloqalarini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, muhandislik psixologiyasining o'rganilishi texnika sohasidagi inson resurslarini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa umumiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Texnika oliy o'quv yurtlarida "Muhandislik psixologiyasi" fanining o'rganilishi, o'z navbatida, mamlakatning texnik sohalarda global raqobatbardoshligini oshiradi. Psixologik bilimlar bilan jihozlangan muhandislar yangi texnologiyalarni samarali ishlab chiqish va joriy etishda katta o'rin tutadi.

Xulosa

Texnika oliy o'quv yurtlarida muhandislik psixologiyasining o'rganilishi, talabalar va mutaxassislar uchun texnik tizimlar bilan samarali ishlashga yordam beradi. Bu fan nafaqat texnik bilimlarni, balki psixologik ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mehnat unumdorligini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash, qaror qabul qilishdagi psixologik jihatlarni inobatga olish, innovatsion yechimlarni yaratish kabi masalalar texnika sohasida yuqori sifatli va samarali ish jarayonlarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, muhandislik psixologiyasining o'rganilishi texnik sohadagi inson resurslarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa texnik tizimlarning samaradorligini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, B. (2016). **Psixologiya va uning amaliyotda qo'llanishi**. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Vohidov, F. (2018). **Muhandislik psixologiyasi**. Toshkent: Akademnashr.
3. Yunusov, X. (2020). **Mehnat psixologiyasi: nazariy asoslar va amaliyot**. Toshkent: Iqtisodiyot va boshqaruv oliy maktabi.
4. Andreev, A. (2017). **Muhandislik tizimlarida inson omilini o'rganish**. Moskva: Mashinostroenie.
5. Mirzaev, U. (2019). **Texnik tizimlar va inson o'rtasidagi aloqalar**. Toshkent: O'zbekiston davlat universiteti nashriyoti.
6. Baxtiyorov, S. (2021). **Psixologiyaning amaliy sohalarda qo'llanilishi: Muhandislik va ishlab chiqarishdagi o'rni**. Toshkent: Science Publishing.
7. Tursunov, I. (2020). **Texnologiyalar va psixologiya: ijtimoiy va ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar**. Toshkent: Akademnashr.
8. Gofman, E. (2003). **Muhandislik psixologiyasi va xavfsizlik**. New York: Wiley & Sons.
9. Xayrullayev, R. (2022). **Odam va texnika tizimlarining psixologik o'zaro aloqalari**. Toshkent: O'zbekiston oliy ta'limi nashriyoti.

ZAMONAVIY DARSLARDA KEYS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Nuraliyeva Nargiza Bozorboyevna,
Guliston davlat universiteti o'qituvchilari
Email: nargiza.nuraliyeva.83@mail.ru
Telefon raqami: +998 97 218 57 00

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ

Нуралиева Наргиза Бозорбоевна,
Преподаватели Гулистанского государственного университета
Email: nargiza.nuraliyeva.83@mail.ru
Telefon raqami: +998 97 218 57 00

EFFECTIVE USE OF CASE TECHNOLOGY IN THE LESSONS

Nuralieva Nargiza Bozorboevna,
Teachers of Gulistan State University
Email: nargiza.nuraliyeva.83@mail.ru
Telefon raqami: +998 97 218 57 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada keys-stadi metodlarini tarixi, kelib chiqishi, qo'llash hususiyatlari ishlab chiqildi. Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish faolikka chaqirish hisoblanadi.

Kalit so'zi: Pedagogik-texnologiya, ta'lim-tarbiya, model, texnologiya, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, keys-stadi, ilmiy-ijodiy, muammo

Абстрактный: В данной статье раскрыты история, происхождение и применение методов тематического исследования. Основная цель технологии кейс-стади – активизировать процесс обучения студентов, призвать к действию по решению существующих проблемных ситуаций.

Ключевое слово: Педагогическая технология, образование, модель, технология, знания, умения, квалификация, компетентность, кейс-стади, научно-творческий, проблемный

Annotation: This article reveals the history, origins, and application of case study methods. The main goal of case study technology is to intensify the learning process of students and call for action to solve existing problem situations.

Keyword: Pedagogical technology, education, model, technology, knowledge, skills, qualifications, competence, case study, scientific and creative, problematic

KIRISH. Ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari xoh ta'lim mazmuni, xoh o'quv dasturi yoki darslik, xoh o'qituvchi faoliyati orqali o'tishidan qat'iy nazar, o'quvchining jonli

tarzdagi erkin va ijodiy faoliyatini jadal rivojlantirishga xizmat qilishiga erishish talab qilinadi. Bunda pedagogik texnologiyalar, birinchi navbatda, har bir o'quvchi-talabaning boshqa o'quvchi-talabalar, dars materiallari hamda o'qituvchi (pedagog) bilan erkin tarzda muloqot qilishini, fikr almashishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalar pedagogik amaliyotning o'quvchi yoki talaba shaxsiga qonunlar majmuini, tabiat va jamiyat hodisalarini, kishilik madaniyati va axloq-odobini, muayyan fan asoslarini tanituvchi shakli sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Darslarda keys texnologiyasidan samarali foydalanish maqsadi:

Darslarida keys texnologiyasining o'ziga xos afzallilari mavjud. Keys texnologiyasi o'quvchilarni tezkorlikka, mustaqil fikrlashga, o'rgatadi.

Keys-stadi ta'lim metodini turli holatlarni o'rganishda qo'llash – hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'lim jarayonidan iborat.

Mamlakatimizdagi ta'lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti. Keys-stadi metodini ta'lim jarayonida keng tatbiq qilishning dolzarbligini belgilovchi omillar. Keys-stadini iqtisodiy oliy o'quv yurtining ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq: Birinchidan, mamlakatdagi iqtisodiy ta'limning umumiy yo'nalishi, uning nafaqat ta'lim oluvchilarda aniq [bilimlarni shakllantirishga](#), shu bilan birga, tinglovchilarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo'llashga tayyorlik va bunga qobillikni rivojlantirish, bo'lg'usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, boshqaruv va iqtisodiyotdagi tadqiqotlarning turli jihatlar bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo'naltirilganligi bilan bog'liq. «Insonning qo'lga baliqni tutqazsang – u bir kun qorni to'q yuradi, mabodo insonni baliq tutishga o'rgatsang – u butun umri davomida ochlik nimaligini bilmaydi» – xitoylik donishmandlarda shunday hikmatli gap bor. Auditoriya sharoitlaridayoq boshqaruvchilik yechimlarini qabul qilishga doir malaka va ko'nikmalar egallanmasa, keyinchalik yaxshi boshqaruvchi bo'lib chiqish mumkin emas. Kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun o'zining boshqarish siyosatini ishlab chiqishga tinglovchilar korxonada va umuman iqtisodiyotda vujudga keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil etish malakalari va ko'nikmalarini egallashi, tahlil qila bilish qobiliyatini o'stirishi, boshqaruvchiga xos xususiyatlarni orttirishlari zarur.

Darslarda keys texnologiyasidan samarali foydalanishning amaliy ahamiyati:

Keys: Atrof muhitni huquqiy muhofaza qilish

Berilgan keysning maqsadi: O'quvchilarga atrof tabiiy muhitni buzilishi natijasida insonlar hayotida jiddiy havf solinishi haqida tushintirish. Dunyoqarashini kengaytirishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Yoshlar hayotini izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar: ekologiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishi, uning salbiy oqibatlari, ekologik jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik borligini ko'rsatib berish hamda tahlil qilish, ularning oldini olish bo'yicha chora - tadbirlarni ishlab chiqish.

Mavzuda ko'rsatilgan muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni topish va ularni o'zaro bog'lagan holda echimlarni aniqlash.

Kutilayotgan natijalar:

- ekologik salbiy oqibatlarni tushunib yetadi;
- ekologik huquqbuzarlik va jinoyatchilik tushunchalarini o'zaro farqlaydi;
- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- o'rganilishi nazarda tutilayotgan tushunchalar haqida malakaga ega bo'ladi;
- muammoli vazifalarni echishda nazariy bilimlarini qo'llaydi;
- muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topadi.

Keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim:

O'quvchi bilishi kerak:

1. ekologiya deb nimaga aytilishi;
2. atrof-muhitning ifloslanish jarayonlarini bilishlari;
3. axloqsizlik, ekologik huquqbuzarlik xislatlarining paydo bo'lish omillari va uning kelib chiqish sabablari;
4. ekologik burchlarning buzilishi;
5. atrof - muhitni muhofaza qilishga oid qonunlar mazmuni;

O'quvchi amalga oshirishi kerak:

- mavzuni mustaqil o'rganadi;
- muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;
- g'oyalarni ilgari suradi;
- ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- o'quv ma'lumotlar bilan mustaqil ishlaydi;
- ma'lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

Keysda ishlatilgan ma'lumotlar manbai:

- a. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- b. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
- c. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun.
- d. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948 yil 10 dekabr.
- e. Bola huquqlari konvensiyasi. 1989 yil 20 noyabr.

Keysning tipologik xususiyatlariga ko'ra harakteristikasi:

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, vaziyat davriy ketma - ketlikda yaqin o'tmishdan bugungi kun tartibida bayon etilgan. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga va tabiatga yo'naltirilgandir. Bu keys ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. U o'rta hajmdagi keys texnologiyasi hisoblanadi, darsga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilishga qaratilgan.

Xulosa: Bu metod ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni echish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar royxati

1.Bozorboyevna, N. N. (2023). Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini o'z ustida ishlashning zamonaviy yo'llari. *Science and innovation*, 2(Special Issue 4), 262-265.

2.[Darslarda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish](#)

N Nuraliyeva

3.Science and innovation 1 (B8), 1423-1426 [Professional development of teachers](#)

NN Bozorboyevna Universal Publishing INC.

4.Каримова, М., Нуралиева, Н., & Халилова, Л. (2024). Медиаграмотность в сфере образования. Евразийский журнал технологий и инноваций, 2(1), 26-30.

5.Allayorov, A., Xudayberdiyev, R., Nuraliyeva, N., Xalilova, L., & Abduraimova, I. (2024). GENDER TERMINOLOGIYASINING TARJIMA XUSUSIYATLARI. *Models and methods in modern science*, 3(4), 198-201.

6.Khalilova, L., Allayorov, A., Xudayberdiyev, R., & Nuraliyeva, N. (2024). INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FOREIGN LANGUAGE INSTRUCTION. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 234-237.

7.Turdikulova, B., Karimova, M., & Nuraliyeva, N. (2024). Advantages of information communication technologies. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(5), 20-25.

8.Fayziyev, A. (2024). Dars samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos metodik xususiyatlari. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-2.

9.Boshlang'ich ta'limda triz-texnikasini qo'llanishi. NN.Bozorboyevna Volume – 7_ Issue - 4_Iyun_2022. 76. 4. Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers NB Nuralieva. *International Journal of Social Science Research and Review* 5 (5), 259-264.

INKLYUZIV TA'LIM BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIB BORILGAN VA OLIB BORILAYOTGAN FAOLIYAT

Sidikova Zulfiya Murodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchisi

Muhammadqodirova Farangiz Jaxongir qizi

Mahsutaliyeva Gulruh Zuhridin qizi

*Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi,
2-bosqich talabalari.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning ta'lim tizimidagi islohotlar va uning ahamiyati, inklyuziv ta'lim yanada rivojlanishi masalalari, ta'lim tizimidagi inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim shakllari, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy siyosati, pedagogik mahorati, inklyuziv ta'lim tizimini maqsadi.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz har kuni ko'rib turgan go'zallikni ular ko'ra olmasligini, yam-yashil tabiatni, har kuni bosib o'tayotgan yo'llarimizni ular bosib o'talmayotganini, atrofimizdagi voqea-hodisalarni eshita olmasligini, ko'ra olmasligini, chunki ularni harakatlanishi falajlik oqibatida chegaralanib qolganligini, chunki ularning ko'zlari ochiz, quloqlari eshitmasligini. Ammo bu bolalar ham hamma qatori sog'lom bo'lib voyaga yetishi, hamma qatori ko'rib turgan go'zalligimizni ular ham ko'rib bahra olib yashashi mumkin edi, lekin ba'zi salbiy omillar tufayli ular bebahra qolishgan.

Turli xil sabablarga ko'ra ruhan va jismonan nuqsoni bo'lin qolgan bolalarni jamiyatimizda e'tiborsiz holda tashlab qo'yish joiz emas, chunki nuqsoni bo'lganligi uchun imkoniyatlari cheklanib qolgan. Ular korreksion yordamga muhtojdirlar.

Nogiron bolalar bilan korreksion ta'limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy adaptatsiyalash, turli imkoniyatlardan foydalanib, o'z-o'ziga xizmat qiladigon va jamiyatga nafi tegadigon qilib tarbiyalash har bir davlatning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday halqning ma'naviyati shu jamoyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi"[1]

Shu sababli bu vazifalarni to'laqonli amalga oshirishda maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni huquqlarini qo'llab-quvvatlab, ularni amalga oshirish maqsadida jahon miqiyosida "Inklyuziv ta'lim" siyosati darajasiga ko'tarilib xalqaro normalari, BMTning 1989-yilgi "Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiyasi", Dakar

Deklaratsiyasi, Salamanka bayonoti va ish rejasi (1994-yil) o'z aksini topgan. Biroq ba'zi bir hollarda maxsus yordamga muhtoj bolalar ta'limda chetda qolib ketmoqda. Bunga asosiy sabablarida biri ota-onalarning farzandga bo'lgan e'tiborining pastligi va bu bolaning o'qishi uchun ta'lim muassasining o'sha hududda yo'qligi yoki uzoqda joylashganligidir. Bu holat juda ayanchlidir. Agar maxsus maktablarga olib borilmasa undagi nuqsonlar tuzatilmasa, undagi nuqson darajasi yanada og'irlashib boraveradi. Ijtimoiy hayotga moslashishi qiyinlashib boraveradi. U "nogiron" bo'lib qolaveradi. Bunday oqibatlardan keyin jamiyatda nogironlarning ko'payishi shu jamiyatni taraqqiyotini orqaga tortishi mumkin. Mana shunday oqibatlarga olib bormasligi uchun yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari keng tus olmoqda.

Inklyuziv ta'limning asosiy mohiyati shundaki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalardan "nogiron" degan tamg'ani ilib tashlash va normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlikni taminlash, jamiyatga butunlay moslashish va hozirgi kundagi barcha imkoniyatlardan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari tizimida o'qitishdan iborat. Qaror hamda Vazirlar mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normative-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarorda o'z aksini topdi. Bunda joriy etish yo'llari, maqsadi va vazifalari, bu sohadagi islohatlar: "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom, 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiya, 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha "YO'L XARITASI" da belgilanib, amaliyotga joriy etish borasida ko'zga ko'rinarli ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvatlash jamg'armasi tomonida 2007-yildan buyon "O'zbekistonda Inklyuziv ta'lim" loyihasi hozirgi kungacha amalda oshirib kelinmoqda. Loyiha hamkorlari: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: Navoiy shahridagi "Umr" imkoniyati cheklangan bolalargayordam berish markazi mavjud, Samarqand shahridagi "Hayot" nomli, Jizzax shahridagi "Istiqbolli avlod", Qashqadaryo viloyati qarshi shahridagi "Umid" tashshabuslarga ko'mak berish va rivojlanish markazi, Termiz shahrida "Imkon" imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko'mak berish markazi, Farg'ona viloyatida qo'qon shahridagi "Ziyo" maxsus zaruratli bolalarga ijtimoiy ko'mak berish markakazlari mavjud. Hozirgi kunda Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlaridagi maktabgacha ta'lim muassasa, maktab, kollej va akademik

litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida bolalar ta'lim-tarbiya olishmoqda.

Inklyuziv ta'limda pedagoglar qanday bo'lishi kerak? Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo o'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifatini mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi darkor. Inklyuziv ta'lim o'qituvchilari o'quvchilarning turli toifada bo'lishini bilishi bolalarni huquqlarini himoya qilishi va hurmat qilishi zarurdir va ular bilan birgalikda hamkorlikni yo'lga qo'yishi kerak.

Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ham ishlash muhim. Alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatimizning bir bo'lagi va o'z huquqiga ekanligini tushuntirish va bunday ishonchni ularning ongiga yetkazish kerakdir. Har bir davlat, jamiyat va ota-ona inklyuziv bolalarga ta'lim berishga haqlidir. Bunday farzandlar hech qachon e'tiborda chetta qolmaydi va yetuk shaxs sifatida ta'lim olishga doimo haqlidirlar.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning hozirgi kundagi maqsadi-ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarni individual xususiyatlarida, ularning yutuqlari, tili, madaniyati, ota-onalarining iyyimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyotga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilishi zarurdir. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda erkin kasb tanlashi, o'zi mutaqlil reja tuza olishi va o'zi zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentyabr
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
3. U.J. Mansurov. O'zbekiston ta'lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar.
4. Norma.uz
5. UNICEF.uz

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TURLARI VA ULARNI INKLUZIV TA'LIMGA JALB ETISH.

Sidikova Zulfiyaxon

*Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim
uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi.*

Tolibjonova Sevaraxon, Shokirova Mubinaxon,

Oralbaeva Eleonora

*Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabalari.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularning inklyuziv ta'limga jalb etish imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. Inklyuziv ta'lim, har bir bola uchun ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan tizim bo'lib, barcha bolalarga, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarga ham teng imkoniyat yaratishni nazarda tutadi. Maqolada imkoniyati cheklangan bolalar turlari, ularning ehtiyojlari va inklyuziv ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi jarayonidagi muammolar, shuningdek, ta'limda mavjud imkoniyatlar va qiyinchiliklar haqida tahlil qilinadi. Shuningdek, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun samarali inklyuziv ta'limni tashkil etishning ahamiyati va strategiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta'lim, ta'lim tizimi, inklyuzivlik, maxsus ehtiyojlar, pedagogika, korreksion sharoit.

«Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz»¹

Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramiz aholisining 15 % (bir milliarddan ortiqroq inson) nogironlikning u yoki bu turidan aziyat chekadi. 60 yoshdan oshgan insonlarning 46 % ni nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil qiladi. Yer yuzidagi nogironligi bor insonlarning 10 % esa bolalardir. Bu kabi insonlarning hayot tarzini yaxshilash, ularga e'tiborda bo'lish maqsadida dunyo miqyosida BMT tomonidan 1983-1992 yillar „Xalqaro nogironlar o'n yilligi“ deb belgilangan edi. Ushbu o'n yillik yakunida (1992-yilning 14- oktyabr kuni) BMT Bosh Assambleyasining 37-yalpi majlisida qabul qilingan rezolyusiyaga muvofiq, 3-dekabr „Xalqaro nogironlar kuni“ deb e'lon qilindi. Mazkur xalqaro hujjatga muvofiq, BMTga a'zo barcha mamlakatlarga, shuningdek, tegishli tashkilotlarga nogironligi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi „ 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida“gi PF-60-sonli farmoni.

bo'lgan shaxslarning to'laqonli hayot kechirishi, ta'lim olishi, salomatligini tiklashi va mehnat qilishi uchun doimiy ravishda kerak shart-sharoitlar yaratib berish, mazkur kunni keng miqyosda nishonlash tavsiya etilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish maqsadi hozirgi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Inklyuziv ta'lim tizimi alohida yordamga muhtoj bolalarning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli inklyuziv ta'limni tashkil etishda uning maqsadi, tamoyillari va vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi, ularni o'qish va yozishga o'rgatish muommolari, ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari va alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ot-onalariga amaliy yordam berilmoqda. Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun kerakli psixologik va pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatidan kelib chiqib yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida inklyuzivi bor va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga to'laqonli moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalalaridan ajratmagan holda yashash huquqini amalga oshirish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona, yaqin va mehribon munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar – bu turli sabablarga ko'ra o'zlarining jismoniy, aqliy, hissiy yoki ijtimoiy rivojlanishida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalardir. Ular, asosan, nogironlik, maxsus ta'lim ehtiyojlari, va boshqa cheklovlar sababli normada rivojlanayotgan bolalardan farq qiladi. Bunday bolalarga inklyuziv ta'lim tizimi orqali ta'lim berish muhim jamiyat vazifalaridan biri hisoblanadi.. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishni ta'minlaydigan, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish jarayonidir. Har bir o'quvchi, uning qobiliyati, jismoniy holati yoki ehtiyojlaridan qat'i nazar, umumiy ta'lim tizimiga qabul qilinadi va eng huquqli ta'lim oladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar turli xil cheklanganliklarga ega bo'lishi mumkin. Bu turdagi bolalar o'z qobiliyatlaridan cheklanish, o'zaro aloqalarda muammo yasash, o'qish-yozish, nutq va harakat-tayanch qobiliyatlar, vizual va tinglash

cheklanganliklar kabi turli xil cheklanganliklarga ega bo'lishi mumkin. Quyida turli imkoniyati cheklangan bolalar turini tavsiflashga harakat qilaman:

1. Nutq va harakat-tayancha cheklangan bolalar: Bu turdagi bolalar o'zlarini ifoda qilish, kommunikatsiya o'rnatish, harakat ko'rsatish va o'zgaruvchanlik qilishda cheklanish ko'rsatadi. Masalan, autizm spektriga kiruvchi bolalar bu guruhga kiradi. Autizm bu- bu nerv sistemasi rivojlanishning buzilishi bo'lib, birinchi marta go'daklik yoki bolalik davrida kuzatilgan namoyon bo'lishi va buzilishning odatda remissiyasiz davom etishi bilan tavsiflanadi.

2. O'zlashtirish va intellektual cheklanganliklari bo'lgan bolalar. Bu turdagi bolalar o'zlarini o'zlashtirish, o'zini boshqarish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishga ega bo'lishda muammo yasaydilar. Bu tur bolalar odatda intellektual cheklanganliklar, Down sindromi, genetik cheklanganliklar yoki boshqa kasallik va jarayonlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

3. O'qish va yozish cheklanganliklari bo'lgan bolalar. Bu turdagi bolalar o'qish, yozish, matematika va boshqa akademik ko'nikmalarga erishishda cheklanish ko'rsatishadi. Ular o'qish va yozish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

4. Vizual va tinglash cheklangan bolalar: Bu turdagi bolalar ko'rsatilgan vizual ma'lumotlarni tushunish, obyektlarni tanish va tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Masalan, retina cheklanganligi, glaukoma yoki boshqa ko'z cheklanganliklari bo'lgan bolalar bu guruhga kiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida o'zlariga maxsus qo'llanmalar, usullar va yondashuvlardan foydalanish talab etiladi. Inklyuziv ta'limning muhim bir qismi sifatida, imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish jarayonida o'zlashtirilgan o'qitish tizimidan foydalanishlari tavsiya etiladi. Bu tizimda imkoniyati cheklangan bolalar boshqa o'quvchilar bilan birga o'qish va o'zlariga xos talablariga muvofiq qo'llanmalar va yondashuvlar bilan ta'minlanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish uchun o'qituvchilar, tarbiyachilar, psixologlar va boshqa mutaxassislar inklyuziv ta'limning tamoyillarini va qo'llanish usullarini o'rganishlari, ular uchun maxsus qo'llanadigan qo'llanmalarni va resurslarni bilishlari muhimdir. Bunda har bir bolaning o'ziga xos cheklanganliklari va o'zining o'ziga xos o'rganish usullari e'tiborga olinadi, shuningdek ularga boshqalar bilan birgalikda ishlash va o'zlashtirish imkoniyati beriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimi jahon ta'limi sohasida muhim ijtimoiy vazifa bo'lib, ular uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarur. Ularni ta'limga jalb etish, o'z navbatida, nafaqat ularning o'z rivojlanishi, balki jamiyatning barcha a'zolari bilan birgalikda yanada mukammal muhitni yaratish imkonini beradi. Shuningdek, har bir bola uchun ta'limga kirish imkoniyatlarini

kengaytirish va muvozanatli rivojlanish imkoniyatlarini yaratish jamiyatning yuksalishiga hissa qo'shadi. Imkoniyatlari cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi uchun, balki jamiyatning barcha a'zolarining tenglik va hamjihatlikni ta'minlash uchun ham zarur. Buning uchun ta'lim muassasalarida, o'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash lozim. Shuningdek, davlatning inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasidagi siyosatlari, resurslarni to'g'ri taqsimlash va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish ham muhimdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u o'z o'rnida tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ham ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Bola, u qanday h olatda va qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar, ular doimiy ravishda kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki alohida nom bilan ,masalan uning nuqsoni bilan atash insonparvarlik va odamiylik nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi.Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan „imkoniyati cheklangan bolalar“, „ko'r bolalar“, „kar bolalar“, „aqli zaif bolalar“, „harakat-tayanch a'zolari falajlangan bolalar“ va shu kabi noqobil tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini poymol qiladi. Ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari singari topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, lekin imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning huquqlarini himoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning eng muhim jihati hisoblanadi.. Shuning uchun ham taxqirlashga yo'l qo'ymaslik talab etiladi.

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining foydasi tegadigan jihati juda ko'p va ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlar va pastga urishlarni oldini oladi;
- Inklyuziv ta'lim jamiyatni inklyuzivlikka olib keladi.
- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi, mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;
- inklyuziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda, har bir o'quvchining o'ziga xos talablari, cheklangInklyuziv ta'limning muhim bir qismi imkoniyati cheklangan bolalarni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularga teng imkoniyatlar taqdim etish, o'zlashtirish va o'rganishning o'zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladigan o'quv

jarayonini ta'minlaydi. Bu shu bilan birga, inklyuziv ta'limning quyidagi asosiy prinsiplari cheklangan bolalarning o'qish-yozish, nutq va harakat-tayancha qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynayadi:

1. Qo'llanmalar va resurslar taqdim etish: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus qo'llanmalar, asboblari va resurslar taqdim etilishi kerak. Bu, qo'llanmalar orqali o'quvchilarning o'rganish jarayonida qatnashishini oshirishi, ularga qiziqishlarini oshirishi va o'zlashtirishlarini oshirishi mumkin.

2. Qo'llanmalar va o'qitish usullarini moslashtirish: O'quvchilarning cheklanganliklari va o'ziga xos talablari bilan mos keladigan qo'llanmalar va o'qitish usullari belgilanishi lozim. Bu, o'quvchilarni ularga qarshi keladigan muammo va qiyinchiliklarga qarshi tashvishga olib kelishi va ularga mos bo'lgan o'rganish usullarini o'rganishlariga yordam beradi.

3. O'quvchilarning o'zlashtirishini oshirish: Imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarining o'ziga xos qobiliyatlarini oshirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu uchun o'quvchilarga ularga mos keladigan vazifalar, o'yinlar va amaliyotlar taqdim etilishi, ularga o'zlarini mustahkamlash va o'zlashtirishlari uchun imkoniyat berilishi kerak.

4. Hamkorlik va qo'llab-quvvatlash: Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'lim tizimida guruhdagi boshqa o'quvchilar, o'qituvchilar va oilalar bilan hamkorlik va qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ular o'quvchilarga yordam berish, ularga dostlik va qo'llab-quvvatlash o'rnida bo'lish, ularga qarshi ta'lim o'rnida yordam berish orqali o'rganish jarayonlarini oshirishi bilan bog'liqdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limning integral qismidir va ularga o'zlarining o'ziga xos talablari va qobiliyatlari bo'yicha qo'llab-quvvatlash, ularga o'zlashtirish va o'rganish imkoniyatlarini taqdim etishning muhim usullarini o'z ichiga oladi. Bu tarzda, har bir o'quvchi o'zining cheklanganliklariga qarab o'sha talablarni bajarishi va rivojlantirishi mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, ta'lim tizimida har bir bolaning teng huquqda ta'lim olishi lozimdir. Inklyuziv ta'lim mana shu tenglikni ushlab turishda eng asosiy ta'lim tizimidir. Ta'lim faqatgina sog'lom bolalar uchun emas-ta'lim inklyuzivi bor, sog'lig'ida muammosi bor o'quvchilar uchun hamdir. Ta'lim oluvchining ta'lim tizimiga jalb qilinishining biror ko'rinishi u uchun muhim, kerakli, tushunarli va foydali bo'lishi lozimdir, shu lahzada bu inklyuziv ta'lim o'z o'rnida rivojlanayotgan inklyuzivi bor bolalarning va ularning sog'lom tengdoshlarining sifatli ta'lim olishiga xalaqit bermasligi darkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent.2014-yil.
2. Sh.R.Shomaxmudova . „Maxsus va inklyuziv ta'lim” uslubiy qo'llanma.
Toshkent .2011-yil.

Internet manbalari:

1. Wikipedia.
2. Sciense promotion.
3. Oefen.uz.
4. Lex.uz.

INKLYUZIV VA KORREKSION TA'LIMDA QO'LLANUVCHI INTERFAOL USULLAR

Sidikova Zulfiyaxon

*Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim
uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Nabiyeva Roxilaxon

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Ma'mirova Ro'zixon

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolamda inklyuziv va korreksion ta'limda qo'llanuvchi interfaol usullar, ulardan o'qituvchi qay tartibda foydalanishi, o'quvchilar bilan qanday ishlashi kerakligi haqida ochib beraman.

Kalit so'zlar: inklyuziv, inklyuziv ta'lim, metod, interfaol metod, usullar, tayanch korreksion, korreksion sinflar.

“Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir”.¹

Inklyuziv" so'zi inglizcha "inclusive" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "shu jumladan" yoki "birlashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, jismoniy yoki intellektual qobiliyatlari, ijtimoiy mavqei va boshqalardan qat'iy nazar, barcha odamlarning ishtirokini o'z ichiga olishga qaratilgan tushuncha yoki yondashuvni bildirish uchun ishlatiladi.

Inklyuziv ta'lim - alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son

ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida yangi chora tadbirlarni amalga oshirdi. Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi. Inklyuziv sinflarni o'z navbatida ikkiga bo'lishimiz mumkin:

1. Inklyuziv ta'lim sinfi — maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi Nizomga ko'ra, o'quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta'lim olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar tashkil etiladi. Bunda o'quvchilar birinchi sinfga 7 yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Shuningdek, maktablar uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. O'quvchilarni mazkur sinflarga qabul qilish hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'lim sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Qarorga ko'ra, inklyuzif ta'lim sinflari o'qituvchilariga mehnatning alohida sharoitlari uchun har oyda to'lanadigan ustama haqi quyidagicha:

1) sinfdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bir nafar bola uchun-lavozim maoshining 10 foizini;

2) 2 nafar bola uchun – lavozim maoshining 20 foizi;

3) 3 nafar bola uchun – lavozim maoshining 30 foizi;

Ikki va undan ortiq inklyuziv ta'lim sinflarida 4 nafar va undan ortiq bola uchun ta'lim-tarbiya ishlarini olib borgan o'qituvchilarga va maxsus pedagoglarga – lavozim maoshining 30 foizi miqdorida.

2. "Korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correction"-tuzatish) korreksion pedagogika pedagogik uslub va tadbirlar yordamida anomal bolalarga ta'lim berish va ularning kamchiliklarini tuzatish, aqliy rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich tayanch korreksion sinfi — maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf.

O'quvchilar — inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda tahsil olayotgan sog'lom yoki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

Maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar hududdagi aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar taklifi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda — hududiy xalq ta'limi boshqarmasi) buyrug'iga ko'ra tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlari ham barcha zarur sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etishlari mumkin. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish tegishlicha hududiy xalq ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta'lim olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishdagi tamoyillar:

1.1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida jahon miqyosida ko'plab deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar.

2.Bog'lanish so'zining zaminida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabi omillar yotadi.

3. O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib, qishloqlardagi hududlarda hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki ota-onalar maxsus tarbiyaga muhtoj farzandini shahardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

4. Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

a. Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integrasiya kilingan v;ismi bo'lishi kerak.

b.Inklyuziv ta'lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga javobgarlik hamda boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

5. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak.

6. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashkari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

a) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

b) ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

s) somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

d) nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

e) tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi);

f) aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

g) aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);

h) intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

i) hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

g) intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Inklyuziv va korreksion ta'limda qo'llanuvchi interfaol usullar mavjud. Mavzuning qay darajada o'zlashtirilishi dars jarayonida qo'llanuvchi metodlarga bog'liq bo'ladi. Dars qay darajada qiziqarli metodlar orqali tashkil qilinsa o'quvchilarda fanga va o'qituvchiga nisbatan mehr va hurmat paydo bo'ladi. Bu esa fanning o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. Interfaol metodlar bu o'rinda juda muhim. Interfaol ("Inter" - bu o'zaro, "Act" - Harakat qilmoq) O'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo'lish)ni anglatadi. Interfaol ta'limning mohiyati o'quvchilarning bir-birlaridan

o'rganishlariga yo'naltirilgan ta'lim ekanligi. Interfaol ta'lim, interfaol usullar muloqotga asoslangan usullar tizimi bo'lib, o'quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va usullar tizimi hisoblanadi. O'qishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilarning faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini o'sishiga olib keladi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Dars metodologiyasi deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Korreksion va inklyuziv ta'limning o'rnini juda muhim hisoblanadi. Anomal bolalarning ta'lim va tarbiya olishi maxsus bilimga ega bo'lgan defektolog o'qituvchilarga topshirilgan va ushbu yo'nalishdagi o'qituvchi kadrlarni yetishtirishga ham katta e'tibor qaratilgan va imkoniyatlar yaratilgan. Jamiyatda har kim o'z o'rniga ega bo'lishi zarur. Inklyuziv hamda korreksion pedagogika ham shu fikrni oqlagan holda sog'ligida nuqsoni bor bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishga katta yordam beruvchi ta'lim shakllari sanaladi. Ruhiiy yoki jismoniy sog'ligida nuqsoni bor bolalar bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida iloji boricha nuqsonlarni yo'q qilish yoki bilinmaydigan holga keltirish, ruhiy holatini yaxshilash va kelajakda yaxshi hayot kechirishlariga umid uyg'otish hamda shuning uchun harakat qilishga undash kabi vazifalarni bajaradilar.

«Odamda qanday tashxis ekanligi muhim emas. Unga hurmat bilan munosabatda bo'lish va munosib hayot kechirish imkonini berish muhim».²

Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar uchun davlatimizda juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda, bundan unumli foydalanish har birimizning burchimizdir. Inklyuziv ta'limga muhtoj o'quvchilar bilan ishlashda juda ham ehtiyotkorona munosabatda bo'lishimiz darkor, chunki unday bolalar juda ham nozik qalb sohiblari bo'lishadi iloji boricha boshqa sog'lom o'quvchilar bilan bir xil muomalada bo'lish darkor.

² Mariya Sibulskaya

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son
2. R.Sh.Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma.
3. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika", darslik, Chirchiq 2022
4. MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI "INKLYUZIV TA'LIM", darslik, Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024
5. <https://lex.uz/ru/docs/-5679836>

O'QUV MUHITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TINCHLANTIRUVCHI VA FAOLLASHTIRUVCHI YONDASHUVLAR

Abdurahmonova Maftuna, Mahammadjonova Dilyora,

Bahromova Feruza, Mamadisoqova Rayxona

Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun qilinayotgan amaliy ishlar, inklyuziv ta'lim va bu ta'lim to'g'risidagi qabul qilingan qonun va bu borada bugungi kundagi muammo va kamchiliklar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiyalar, maxsus ta'lim, dars, pedagog, samaradorlik, ta'lim va tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar.

Imkoniyati cheklangan (aqli zaif, nogiron) bolalar maktablarida logopedik ishning asosiy vazifasi aqli zaif o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda bu toifadagi bolalarni ijtimoiy tomondan orqada qolishlikka olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi turli xil nuqsonlarni tuzatish, yengillashtirish, kompensatsiya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Nogiron - jismoniy, aqliy, psixologik va hissiy faoliyatning izdan chiqishi, shikastlanishi natijasida hayot faoliyatining cheklanishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan va ijtimoiy yordam hamda himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs tushuniladi. "Nogiron" atamasi hozirgi kunda eskirib qolgan va qo'pol bo'lgan so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday shaxslarga nisbatan "imkoniyati cheklangan insonlar" yoki "nogironligi bo'lgan shaxslar" deb murojaat qilish to'g'ri bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ularning individualligini va ehtiyojlarini hisobga olish juda muhimdir. Tinchlantiruvchi va faollashtiruvchi yondashuvlar bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

¹Hozirgi kunda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan va himoya qilinmoqda. BMT ning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning xalqaro standartlari, shuningdek, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasidan

¹ BMT ning Nogironlar Huquqlari To'g'risidagi Konvensiyasi 2006-yil 13-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan

foydalanishni nazarda tutuvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida" gi Qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Joriy yilda «Zamin» fondi «Eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun ta'limni rivojlantirish» dasturi doirasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan AKT-maktabida «Zamin Education» loyihasiga start berilib, loyihaning asosiy maqsadi eshitish qobiliyati zaif bolalarning kasb mahoratini rivojlantirish va ijtimoiylashuvda qo'llab-quvvatlash, ularni oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishga tayyorlash, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o'qituvchilarining malakasini oshirish va yangi metodologiyani ishlab chiqishdan iborat. Ushbu loyiha birinchi «Zamin Education» o'quv-resurs markazi ochilgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan AKT-maktabi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Loyihaga mo'ljallangan sinfda ma'lumotlarni qabul qilish sifatini oshirishga qaratilgan yordamchi uskuna — FM-tizimi o'rnatilgan. Shuningdek, har bir o'quvchiga individual eshitish vositalari taqdim etilgan.«Zamin» fondi vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoeva o'quv jarayoni bilan tanishish uchun ushbu sinfga tashrif buyurib, 102 va 106-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning yuqori sinf o'quvchilari bilan suhbatlashib, bolalar o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashdi va o'rganilayotgan mavzular haqida so'zlab berdi.Birinchi o'quv-resurs markazining muvaffaqiyatli natijalaridan so'ng mamlakatning barcha hududlarida «Zamin Education» sinflarini tashkil etish rejalashtirilgan.O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. Bu qonun 2021-yil 16-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan bo'lib, bu qonunga muvofiq 2020-yil 15-oktabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" gi O'RQ-641 sonli qaror qabul qilingan bo'lib, bu hujjat ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan Brayl alifbesida ham nashrdan chiqarildi. Prezidentimiz tomonidan

2020- yil 13- oktabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2020- yil 14 - oktabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko'ra 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021-yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tuzib chiqiladi. Bu konsepsiya 2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, 1- bosqichda (2020-2022-yillar) inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratish, bu bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy, normativ bazani yaratish, jihozlash va zarur o'quv qurollari bilan maktablarni ta'minlash nazarda tutilgan. 2- bosqichda (2023-2025-yillar) inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etish, bu bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshirish kabilar.

Inklyuziv ta'lim - bu maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma - xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta'lim olish imkonini beradi. Inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma -bosqich ayrim maktablarda sinov tariqasida yo'lga qo'yiladi va ijobiy natija va tajribalar keyinchalik respublikaning boshqa hududlaridagi maktablarida tadbiq etiladi.

Tinchlantiruvchi yondashuvlar

Tinchlantiruvchi yondashuvlar bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va ularga stressni kamaytirishga yordam beradi:

1.Sensor xonalar tashkil qilish

Sensor xonalar bolaning hissiy barqarorligini tiklashga yordam beradi. Bunday xonalarda quyidagi vositalar ishlatilishi mumkin:

- Yumshoq yorug'lik va pastel ranglar.
- Sekin musiqalar yoki tabiat tovushlari.
- Sensor o'yinchoqlar (yumshoq to'p, taktil materiallar).

2.Nafas olish mashqlari

Bolalar bilan chuqur nafas olish texnikalarini o'rgatish ularning stress darajasini pasaytiradi. Masalan:

- "Baland shamol" mashqi: burun orqali chuqur nafas olish va og'iz orqali asta-sekin chiqarish.
- "Qushning parvozi" mashqi: nafas olishni qo'l harakatlari bilan uyg'unlashtirish.

3. Meditatsiya va vizualizatsiya mashqlari

•Bolalar o'zlarini tinch joyda tasavvur qilishlari uchun yo'naltirilgan meditatsiya mashqlari.

- Tasvirlar yoki hikoyalar orqali ularning ongini xotirjamlikka olib kelish.

1. Ommaviy terapiya usullari

- Hayvonlar bilan aloqa qilish terapiyasi.
- Suvda mashq qilish (akvatik terapiya).

Nutqni o'z vaqtida to'g'ri egallash, bolaga atrofni o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z xulqini boshqarishga yordamlashadi, bola ruhiy faoliyatini rivojlanishiga ko'maklashadi va nihoyat, maktabda ta'lim tarbiya berish jarayonini yengillashtiradi. Imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarining sog'lom, tengdoshlariga qaraganda kech tilga kiradilar, birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan esa besh yoshgacha kechikadi. Eng, avvalo bu o'rinda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. 1-sinfga kelgan aqli zaif bolalarning 90 foizida talaffuz

nuqsonlari uchraydi. Aksariyat bolalarda fonematik eshitish qobiliyati buzilgan bo'lib, nutq a'zolari va ularning harakatidagi nuqsonlar ham uchraydi. Lug'at boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi.

Faollashtiruvchi yondashuvlar

Faollashtiruvchi yondashuvlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlash va ularda qiziqishni oshirish uchun muhimdir:

1. Harakatli o'yinlar va mashqlar

- Jismoniy faollikni talab qiluvchi o'yinlar bolaning energiyasini chiqarishga yordam beradi. Masalan: to'p o'yinlari, gimnastika yoki kichik musobaqalar.

- Harakat va ijodkorlikni birlashtiruvchi faoliyatlar, masalan, raqs yoki pantomima.

2. Ijodiy mashg'ulotlar

- Bolalar rasmlar chizish, plastilin yoki loydan buyumlar yasash orqali o'z his-tuyg'ularini ifoda qilishlari mumkin.

- Musika terapiyasi: oddiy asboblarda musiqa ijro etish, qo'shiqlar kuylash.

3. Pozitiv rag'batlantirish

- Har bir kichik yutuq uchun bolalarni maqtash. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

- Rag'batlantiruvchi sovg'alar yoki nishonlar berish.

4. Interaktiv dars usullari

- Raqamli o'quv materiallari yoki interaktiv o'yinlardan foydalanish.

- Guruh bo'lib ishlash, bunda bolalar bir-biriga yordam beradi.

Impressiv nutq ekspressiv nutq taraqqiyotidan ancha orqada qoladi. Mavhum xususiyatdagi, umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalovchi ko'pgina so'zlarni tushunmaydilar, ko'chma ma'noda qo'llanilgan tushunchalarni anglashda qiynaladilar, ularni aynan idrok etadilar. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning gap tuzishida ham qiyinchilik vujudga keladi. Tuzgan gaplari sodda, yig'iq bo'lib so'zlarning o'zaro moslashuvida ko'plab xatolar uchraydi, murakkab bog'lanishli gaplar juda kam qo'llaniladi. Aqli zaif o'quvchilar bir narsani ikkinchisiga qiyoslashga, xodisalarning sababli bog'lanishlarini ochib berishga qiynaladilar, buning ustiga voqea xodisalarini yetarli, aniq anglamaslik aqli zaif o'quvchilarning fikri butunlay noaniq tugallanmagan bo'lib qolishiga olib keladi. Gap mazmunini tushunmaslik imkoniyati cheklangan o'quvchilar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bolalar o'qiyotgan, eshitayotgan va ko'rayotgan narsalarni to'la tushunib yetmasligi ularning so'zlashuv nutqida bir qator xatolarga olib keladi. Imkoniyati cheklangan bolalar nutqidagi barcha nuqsonlar, ularni o'qitish jarayonida qiyinchilik tug'diradi, hamma vaqt ham o'qituvchining tushuntirishlarini fahmlashavermaydi, o'qituvchining

tushuntirishlarini to'g'ri tushunib yetmaydi. Lekin ilg'or o'qituvchi-defektologlarning tajribalari shuni ko'rsatdiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan jarayoni yordamida aqli zaif o'quvchilarning nutq faoliyatini tuzatish, ya'ni korreksiya qilish, umumiy shaxs rivojlanishida rolini oshirish mumkin.

Yondashuvlarni amalga oshirishda muhim tamoyillar

1. Individuallikni hisobga olish

Har bir bolaning ehtiyojlari, qobiliyatlari va cheklovlari o'ziga xos. Tashkil etilgan darslar va mashg'ulotlar shunga moslashtirilishi lozim.

2. Moslashuvchanlik

Ta'lim jarayonida bolalarning hissiy va jismoniy holatiga qarab yondashuvlarni o'zgartirish zarur.

3. O'zaro hurmat va hamkorlik

Bolalar bilan ishlashda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ular bilan hamkorlik qilish muhimdir. Bu ularga o'zlarini qadrli his qilish imkonini beradi.

O'quv yilining dastlabki 2 haftasi o'qishga yangi kelgan o'quvchilar nutqini aniqlashga, tekshirishga qaratiladi. Bunda logoped o'quvchining og'zaki va yozma nutqi 2 bosqichda tekshiradi: 1-bosqichda sinfdagi o'quvchilar nutqi yalpi holatda tekshiriladi hamda o'quvchilar orasidan nutq nuqsonli bolalar aniqlanadi; 2-bosqichda ro'yhatga olingan nutq nuqsonli o'quvchi logopedik yordam xonasi sharoitida yakka tartibda chuqurroq aniqlanadi va tashxis qo'yiladi. Yakka mashg'ulotlar rejasi asosan logopatning nutq kartasida aksettiriladi. Nutq jarayonini logopedik tekshirishni tashkil etish Birinchi sinf imkoniyati cheklangan o'quvchilarining nutqini tekshirish dars jarayonida o'quvchilarni o'rganishdan boshlanadi. Bunday frontal (yalpi) tekshirish logoped uchun vaqt tejashgina bo'lib qolmasdan, u o'quvchilar nutq faoliyatining tabiiy holatini kuzatish imkonini beradi, o'quvchilar javobi, ularning og'zaki nutq holatini yaqqol ifodalab beradi. Shu bilan bir qatorda logoped bu davrda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari: ish qobiliyatlari, diqqat, xotira, aqliy darajalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Frontal tekshirish har xil shaklda, shuningdek, integratsiya tarzida ham o'tkazilishi mumkin. Bunda logoped o'qituvchining ishjarayonida o'quvchilar javobini kuzatadi, so'ng o'znavbatida logoped o'zi tavsiya etgan mazmunli rasm asosida savol javob o'tkazadi, hikoya tuzib gapirishni so'raydi. Yana shuni hisobga olish lozimki, nutq tekshirish jarayoni ta'limiy xususiyatga ega bo'lishi lozim. Rasm asosida so'zlab berish jarayonida so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga bolalar diqqati qaratiladi. O'quvchilarni so'zlatish davomida o'quvchi nutqining lug'at boyligi, so'zlarni ma'nosini tushuna bilib umumlashtiruvchi so'zlardan foydalana olishi, grammatik tomondan to'g'ri shakllanganligi va hokazo tomonlari har tomonlama o'rganiladi. O'quvchining talaffuz holatini tekshirish jarayonida, har bir sahifasiga ma'lum tovush turli o'rinlarda (boshida, o'rtasida,

oxirida) kelgan rasmlar joylashtirilgan tovushlar talaffuzini aniqlash albomidan foydalaniladi. Tovushni analiz qilish malakasini tekshirishda o'quvchilar unli, undosh tovushlarni yakka holda, bo'g'in, so'z, gaplarda farqlay olishlari, so'zda tovushlar soni, ketma-ketligini bila olish jarayoni aniqlanadi. Mazkur qaror bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha 2020-2021-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, 2023-2025-yillarda inklyuziv ta'lim tizimi 51 foiz umumta'lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta'lim shakliga 40 foiz imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalar musiqa, rassomchilik, tasviriy san'at, kulolchilik, jismoniy tarbiya va sport, kompyuter, tikuvchilik hamda boshqa maktabdan tashqari to'garaklar bilan qamrab olinadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, imkoniyati cheklangan bolalar maktablarida amalga oshirilayotgan ushbu amaliy qadamlar va kerakli zaruriy chora-tadbirlar natijasida ushbu tizimdagi mavjud muammolar o'z yechimini topishi hamda jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy-psixologik holatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Djurayeva, S. (2020). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGI TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. Архив Научных Публикаций JSPI.
2. Nabiyeva, G. A. (2021). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYA OLISHLARI. Scientific progress, 7(5).
3. <https://yuz.uz/news/zamin-fondi-eshitish-qobiliyati-zaif-bolalar-uchun-zamin-education-loyihasiga-start-berdi>
4. Zoxiriy, P. H. Z. Q. (2021). INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH MUAMMOLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1).
5. <https://lex.uz/ru/docs/-1866997>
6. <https://m.kun.uz/uz/news/2020/11/19/ular-ham-bizning-farzandimiz-imkoniyati-cheklangan-bolalar-oqishidagi-muammolarni-kim-hal-qiladi>.

INKLYUZIV VA KORREKSION TA'LIMDA QO'LLANUVCHI INTERFAOL METODLAR

Sidikova Zulfiya Murodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi,

Ismoilova Mohlaroyim, Saydaliyeva Nigora,

Xudoyberdiyeva Nozigul

Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi,

2-bosqich talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv va korreksion ta'limning ahamiyati, ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi roli hamda interfaol metodlarning bu yo'nalishlarda qo'llanishi yoritilgan. Inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashgan holda, ularga teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan. Korreksion ta'lim esa o'ziga xos ehtiyojlarga ega o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu maqola guruhda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, rol o'ynash, interaktiv texnologiyalardan foydalanish kabi metodlarning ijtimoiy va ta'limiy jarayonlardagi afzalliklari haqida batafsil ma'lumot beradi. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va o'zaro hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, korreksion ta'lim, interfaol metodlar, jamoaviy ish, muammoli vaziyat, rol o'ynash, interfaol texnologiyalar, ijtimoiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, moslashuvchan ta'lim.

Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari har tomonlama mukammal o'z ifodasini topgan.

Avvalo Konstitutsiya Oliy yuridik kuchga egaligi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjat ekanligi belgilandi (15-modda). Inson huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, Inson huquq va erkinliklari qonunlarining, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi; Davlat tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi; Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilab qo'yildi (20-modda).

Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari ancha kengaytirildi. Yangi huquqlar va qoidalar belgilandi. Buni avvalgi "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" bobi, "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" deb o'zgartirilganida ham ko'rish mumkin. Avvalgi Konstitutsiyada inson xuquqlari uchun 23 modda ajratilgan bo'lsa, yangi taxrirdagi Konstitutsiyada 34 modda mavjud bo'ldi (11 ta yangi modda). Inson huquqlariga taalluqli moddalardagi normalar 37 dan 98 ta ko'paydi. Bu degani faqat yangi moddalar qo'shib qolinmay, yangi normalar bilan boyitildi [6]. O'lim jasosi taqiqlanadi; insonni sha'ni va qadr-qiymati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas; hech kim qonunga asoslanmagan xolda xibisga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uni ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi, uni ushlab chog'ida unga tushinarli

tilda uning huquqlari va ushlab turish sabablari tushuntirilishi shartligi; aybsizlik prizumsiyasi aniq belgilanganligi, aybsizlikka oid barcha shubxalar, ularni bartaraf etish imkoniyati tugagan bo'lsa ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki maxkumning foydasiga hal qilinishi; xar kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvovlik berishga majbur emasligi; agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi va jazolanishi mumkin emasligi; ozodlikdan maxrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qiymati xurmat qilinishi huquqiga egaligi; shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi to'g'risidagi qoidalarini o'rnatilishi insonparvar davlat yo'lidan borayotganimizni ko'rsatadi.

Konstitutsiyamizda fuqarolarning siyosiy soxadagi xuquqlarni ham kengaytirildi, unga mutlaqo yangi "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar" degan qoida kiritildi (37-modda). Bu fuqarolarning davlat boshqaruv ishlarida ishtirokiga teng imkoniyat yaratadi. Konstitutsiyaga xomiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirishni taqiqlovchi qoidani kiritilishi esa, ayollarni jamiyatdagi o'zni munosib bo'lishiga qaratilgan e'tibordir.

Har kimni uy-joyi bo'lish huquqi, har kim qulay atrof-muxitga, uning xolati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lishi huquqi, o'qituvchilarning maqomini aloxida belgilanishi, sha'ni, qadr-qimmatini ximoya qilinishi, ularga aloxida g'amxo'rlik qilish kerakligi, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ishsizlikdan ximoya qilish, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishini Konstitutsiyada qayd qilinishi va Konstitutsiyaviy darajada belgilanishi O'zbekistonni xalqparvar davlat ekanligidan dalolat beradi.

Yangi taxrirdagi Konstitutsiyaning kuchli va ta'sirchan jixatlaridan yana biri-unda inson huquqlarining kafolatlarini belgilashga yangicha yondashuvdir. Konstitutsiyaning 54-moddasida "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir.

Davlat inson hamda fuqaroninig Konstitutsiya va qonunlarida mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" – deb mustahkamlab, o'z zimmasiga katta, ma'suliyatni oldi. Bu norma davlatning maqsadi asosida, ma'suliyatini Konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi. Bu tarzda ma'suliyatni mustahkamlanganligi barcha davlat Konstitutsiyalarida uchravermaydi. Konstitutsiyadagi inson huquqlarini belgilovchi ko'plab moddalarda shu normani ijrosini ta'minlash davlat zimmasida ekanligini yozib qo'yilganligi davlatning shu ma'suliyatidan kelib chiqadi.

Davlatning ma'suliyati-majburiyati bir necha moddalarda, shu normani "ta'minlash", "shart-sharoit yaratish", "chora ko'rish", "g'amxo'rlik qilish uchun shart-sharoit yaratish" kabi ma'suliyati to'g'ridan-to'g'ri Konstitutsiya moddalarida ko'rsatilgan (29, 33, 43, 47, 49, 50, 53, 57-moddalar).

Konstitutsiyada inson va fuqarolarning huquqlari kafolatlari tizimi, fuqarolarga o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlari kengaytirildi. Jumladan har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi; har kim qonunchilik va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy ximoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojat qilishiga haqli ekanligi belgilandi (55-modda). Bu mutlaqo yangi va huquqlarni himoya qilishining kuchli vositasidir. Konstitutsiyada inson huquqlarini ximoyalashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar vazifasi belgilandi. Unga asosan, milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini ximoya qilishning mavjud shakllari xamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi (56-modda).

Konstitutsiyada mexnatga layoqatsizlar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, axolining ehtiyojmand qismi, xotin-qizlar huquqi aloxida ximoyalanishi belgilandi. Fuqaro huquqlarini ximoyalash faqat shaxsning huquqiy xolatiga taalluqli boblarda, moddalardagina emas, Konstitutsiyaning boshqa moddalarida xam uchraydi.

Konstitutsiyaning 133-moddasida, fuqarolar, agar sud orqali ximoya qilishning boshqa barcha vositalardan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojat qilishga haqli, - degan qoida bunga misol bo'ladi. Konstitutsiyaga kiritilgan bu yangi qoida, fuqarolar huquqini kafolatlarini kuchaytirishi bilan birga, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini kuchaytirishga xam qaratildi.

Shuningdek, Konstitutsiyaga maxsus "Advokatura" bobining kiritilishi ham inson huquqlarini ta'minlash choralari kuchaytirilganligini ko'rsatadi. Tajribadan ma'lumki, inson huquqlarini Konstitutsiyada belgilanishi masalani bir tomoni, Konstitutsiyalarda u turlicha va xar tomonlama belgilanishi, chiroyli so'zlar bilan yozib qo'yilishi mumkin. Sovet davridagi Konstitutsiyalarda xam inson huquqlari yaxshi belgilangan edi. Lekin ularni amal qilishi qoniqarsiz edi. Shuning uchun Konstitutsiyamizda inson huquqlarini mukammal va keng belgilanishi bilan muammolar xal bo'lmaydi. Ularni amal qilishini ta'minlovchi kuchli mexanizm va sharoitlar bo'lishi zarur.

O'zbekiston Prezidentining quyidagi "Xammamiz yaxshi tushunamizki, qonunlarni qabul qilish – bu ishning bir qismi xolos.

Asosiy masala-qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va ma'sul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish xamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir" degan so'zlari xam buni ko'rsatadi. Shuning uchun Konstitutsiya normalarini xayotga tadbqiq etishni ta'minlashni ko'zda tutuvchi, Prezidentning 2023 yil 8 mayda "Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda Konstitutsiya normalarini, jumladan inson huquqlariga tegishli normalari ta'minlashning kuchli mexanizm va tadbirlari belgilandi. Konstitutsiya normalarini bajarilishi uchun ko'plab iqtisodiy imkoniyatlarini yaratish chora-tadbirlari ko'rilmogda. Bular O'zbekistonning "Ijtimoiy davlat" xususiyatiga mos keladi.

Shavkat Mirziyoyev ayrim fuqarolar tomonidan **o'lim jazosini tiklash** yuzasidan bildirilgan takliflarga munosabat bildirib, bu insonning tabiiy va uzviy huquqi hisoblangan **yashash huquqi kafolatlariga hamda demokratik va insonparvar g'oyalarga zid** ekanligini ta'kidladi. U «**O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi**», degan muhim normani asosiy qonunda aks ettirishni taklif etdi.

Davlat rahbari huquq-tartibot organlari tomonidan qo'lga olingan **gumon qilinuvchi shaxslar huquqlari buzilishining oldini olish** maqsadida «ko'plab davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda aks etgan **«Miranda qoidasi»**ni qo'llash taklifini ilgari surdi. Unga ko'ra, shaxsni ushlab chog'ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shart.

«Bundan tashqari, „**Xabeas korpus**“ institutini rivojlantirish zarur. Ya'ni, shaxs sudning qaroriga qadar ko'pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emas. Agar sud tomonidan shaxsni hibsga olish yoki unga nisbatan boshqacha turdagi ozodlikni cheklash haqida qaror belgilangan muddatda qabul qilinmasa, bunday shaxsni darhol ozod qilish kerakligi haqidagi normani ham Konstitutsiyada aks ettirishimiz zarur», — deya ta'kidladi prezident.

Davlat rahbarining taklifiga ko'ra, **sudlangan shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari huquqlari kafolatlarining buzilishiga chek qo'yish** maqsadida «shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo'lishi mumkin emas"ligi, «ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga nisbatan insoniy munosabat va ularning qadr-qimmatini ta'minlanishi shart» ekanligi Konstitutsiyada qat'iy belgilab qo'yilishi zarur.

«Milliy qonunchiligimizda bajarib bo'lmaydigan yoki **bajarish qiyin bo'lgan normalar** ham uchrab turadi. Aslida, qonunlar insonga hech qachon ortiqcha talab

qo'ymasligi kerak. Ortiqcha talab, avvalo, ortiqcha xarajat degani. Qolaversa, bu **korrupsiyaga yo'l ochadi**», — deya ta'kidladi prezident. O'z o'rnida, bunday holatlarning oldini olish maqsadida «ma'muriy, fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy javobgarlik va boshqa yo'nalishdagi ishlarni ko'rib chiqishda **insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari — qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli bo'lishi hamda shaxsga imkon qadar yengillik yaratishi**» lozimligi to'g'risidagi yangi normani Konstitutsiyaga kiritish taklifini bildirdi.

Shuningdek, fuqarolarning mamlakat bo'ylab **erkin harakatlanish, turar yoki yashash joyini erkin tanlash huquqi, mamlakatdan to'siqlarsiz chiqish va qaytish huquqi** kafolatlanishi lozimligi qayd etildi. Bundan tashqari, **shaxsiy hayot daxlsizligi va uning kafolatlari** Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi zarur.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya “**Inson – jamiyat – davlat**” paradigmasiga asoslangani, unda barcha aholi toifalarining, hatto jinoyat sodir etgan shaxslar huquq va manfaatlari aks etgani bilan o'ta muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyaga kiritilgan muhim o'zgarishlardan biri O'zbekiston – huquqiy davlat sifatida belgilanganligidan iborat. Jumladan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi, deya e'lon qilinar ekan, unda **inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ortiqqa oshirildi**.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2019 yil.
2. Xusanov.O. “Konstitutsiyaviy huquq” Toshkent: Adolat, 2013.
3. Konstitutsiyaviy huquq, ensiklopedik lug'at. Toshkent, 2006 yil.

TURLI ZAMON VA MAKONLARDA YARATILGAN TARBIYA KONSEPTSIYALARI

Mahmudova Durdona Sobidjon qizi

Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti

“Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi”

4-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola tarbiya konseptsiyalarining turli davr va mintaqalardagi o’ziga xosliklarini o’rganishga bag’ishlangan. Tarbiya tushunchasi madaniyat, jamiyat va zamonaviy ilm-fan rivojiga qarab qanday o’zgarib borganiga e’tibor qaratiladi. Tahlil jarayonida Sharq va G’arb madaniyatidagi tarbiya modellarining qiyosiy o’rganilishi, ularning tarixiy va ma’naviy ahamiyati ochib beriladi. Maqolada konseptsiyalarning bugungi ta’lim-tarbiya tizimiga ta’siri ham muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: tarbiya, tarbiya konseptsiyalari, madaniyatlararo taqqoslash, tarixiy tahlil, pedagogika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные концепции воспитания, разработанные в различные исторические эпохи и в разных культурных контекстах. Особое внимание уделяется философским и педагогическим подходам, существовавшим в Древней Греции, Риме, а также в восточных странах, таких как Китай и Индия. Также анализируются концепции воспитания в рамках западной педагогики, начиная с эпохи Просвещения и до современности. В статье проводится сравнительный анализ воспитательных концепций разных эпох и культур, что позволяет лучше понять их влияние на современную систему образования и воспитания. Основное внимание уделяется изменению подходов к воспитанию с учетом времени и культурных особенностей, а также их взаимовлиянию в условиях глобализации и технологических изменений.

Ключевые слова: воспитание, педагогика, философия, образование, культурные различия, воспитательные концепции, глобализация, личностное развитие, моральные ценности.

Annotation: This article examines various educational and upbringing concepts developed in different historical periods and cultural contexts. It focuses on the philosophical and pedagogical approaches in Ancient Greece, Rome, as well as Eastern countries like China and India. The article also analyzes the development of educational concepts within Western pedagogy from the Enlightenment period to the present day. A comparative analysis of upbringing concepts across different epochs

and cultures is conducted, shedding light on their impact on modern education and upbringing systems. The focus is on how approaches to education have evolved with time and cultural influences and how they have interacted in the context of globalization and technological advancements.

Keywords: upbringing, pedagogy, philosophy, education, cultural differences, upbringing concepts, globalization, personal development, moral values.

Kirish

Tarbiya insonning axloqiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishini shakllantirishdagi muhim jarayondir. Tarbiya konseptsiyalari zamon va makonga qarab o'zgarib, har bir davr va mintaqaning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlariga moslashgan. Sharqning ma'naviyati, G'arbning ilmiy asoslangan pedagogikasi, qadimgi yunon falsafasidagi tarbiya tamoyillari yoki islom madaniyatidagi ta'lim-tarbiya tizimlari bu sohaning cheksiz boy ekanligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada ana shunday turli tarbiya konseptsiyalari tahlil qilinib, ularning zamonaviy ta'lim tizimiga ta'siri baholanadi.

Tahlil va Muhokama

Qadimgi Yunoniston va Rimdagi Tarbiya Konseptsiyalari

Qadimgi Yunoniston insoniyat tarixida tarbiyaning falsafiy asoslarini yaratgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Sokratning axloqiy va intellektual rivojlanish tamoyillari, Platonning ideal davlatni qurish uchun mukammal fuqarolarni tarbiyalash g'oyalari, Aristotelning esa amaliy hayotga asoslangan tarbiya modeli ushbu davrning asosiy tamoyillaridir.[1,32]

Platonning *"Davlat"* asarida insonning uch asosiy qobiliyati: aqliy, g'ayrat va xohish tahlil qilingan bo'lib, uning fikricha, tarbiya aynan ushbu qobiliyatlarni mukammal shakllantirishga qaratilishi kerak. Aristotel esa ta'lim va tarbiyaning bir butun ekanini ta'kidlab, yoshlarni ilmiy bilimlar bilan birga amaliy mahorat va axloqiy me'yorlarga o'rgatish lozimligini urg'ulagan. [2,43] Bu konseptsiya bugungi kun ta'lim tizimlarining asosiy yondashuvlaridan biriga aylangan.

Rim madaniyatida esa tarbiya pragmatik va amaliy maqsadlarni ko'zlagan. Rimliklar tarbiyani huquqshunoslik, harbiy tayyorgarlik va davlat boshqaruviga xizmat qiluvchi bilimlarni berishga yo'naltirishgan. Bu mintaqada tarbiyaning maqsadi shaxsning jamoaga xizmat qilishdagi rolini maksimal darajada oshirish bo'lgan.[4,21]

Sharq madaniyatidagi tarbiya konseptsiyalari

Sharq madaniyatida tarbiya ma'naviy qadriyatlarga asoslangan bo'lib, axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Xitoy falsafasida Konfutsiy jamiyatning barqarorligini ta'minlash uchun insonning axloqiy barkamolligini ta'kidlagan. Uning

ta'limoti shaxsiy fazilatlar, masalan, hurmat, adolat va halollikni rivojlantirishga qaratilgan.

Hindiston madaniyatida “gurukul” tizimi ustoz va shogird o'rtasidagi yaqin aloqaga asoslangan. Ushbu tizimda tarbiya nafaqat ilmiy bilimlarni o'rgatishni, balki insonning ma'naviy va jismoniy kamolotini ham ta'minlashni ko'zlagan. Islom dunyosida esa Qur'on va Hadis ta'limotlariga asoslangan tarbiya modeli shakllandi. Bu konseptsiya nafaqat diniy bilimlarni, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga olgan. Masalan, Buyuk Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi olimlarning ilmiy merosi islom madaniyatida tarbiya va ta'limning uzviyligini ko'rsatadi.[5,47]

G'arb Pedagogikasining Taraqqiyoti

XVII-XVIII asrlarda G'arbda tarbiya yangi yondashuvlarni rivojlantirish bosqichiga kirgan. Jon Lokkning tabiiy tarbiya tamoyillari bolalarni tabiat bilan uyg'unlikda tarbiyalashni ilgari surdi. Jan-Jak Russo esa “*Emil yoki tarbiya haqida*” asarida bolani erkin shaxs sifatida shakllantirish muhimligini ta'kidlagan.[6,42]

XIX-XX asrlarda G'arbda ilmiy asoslangan pedagogika rivojlandi. Johan Genrix Pestalozzi bolalarning ehtiyojlariga mos ta'lim metodlarini ishlab chiqdi. U bolalarni qalb, ong va qo'llar orqali tarbiyalashni taklif qilgan. Mariya Montessori esa bolalarning mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan tizimni yaratdi. U ta'limda bolalarning individual qobiliyatlariga e'tibor berish lozimligini ta'kidlab, bugungi pedagogika tamoyillariga asos solgan.[6,56]

Zamonaviy tarbiya konseptsionalari

Bugungi kunda globalizatsiya va texnologiyalar rivoji tarbiya konseptsionalariga yangi uslublar olib kirdi. Tarbiya va ta'lim jarayonlari masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali kengayib, shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan dasturlar paydo bo'ldi. Axborot texnologiyalari yoshlarning mustaqil o'qish va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy tarbiya jarayoni jamiyatda qadriyatlarni saqlash, yosh avlodni milliy va global madaniyatga hurmat bilan tarbiyalashga qaratilgan. Bu borada milliy ta'lim tizimlari milliy an'ana va qadriyatlarga asoslangan yangi dasturlarni ishlab chiqmoqda. Masalan, O'zbekistonning “Yangi O'zbekiston” kontseptsiyasi yoshlarda milliy iftixor va ma'naviyatni mustahkamlashni maqsad qilgan.[7,62]

Tarbiya konseptsionalarining qiyosiy tahlili

Turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya konseptsionalarini taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash mumkin. Sharq madaniyati ko'proq ma'naviyat va axloqni shakllantirishga urg'u bergan bo'lsa, G'arb madaniyatida ilmiy asoslangan individual yondashuv muhim bo'lgan. Bugungi kunda

esa bu ikki konseptsiya bir-birini boyitib, globalizatsiya ta'sirida uyg'unlashib bormoqda.[8,34]

Masalan, Sharqning axloqiy qadriyatlari zamonaviy G'arb texnologiyalari bilan uyg'unlashib, tarbiya va ta'limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, har bir millat o'zining milliy tarbiya modelini saqlab qolishga intilmoqda.

Tarbiya Konsepsiyalarining Bugungi Kunga Ta'siri

Bugungi global ta'lim jarayonlari turli zamon va makonlarda shakllangan tarbiya konsepsiyalaridan samarali foydalanmoqda. Masalan, Montessori tizimi bugungi maktabgacha ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayotgan bo'lsa, Sharqning ma'naviy tamoyillari milliy ta'lim tizimlarida muhim o'rin egallamoqda.

Ayniqsa, tarbiya jarayonida texnologiyalarning qo'llanilishi va shaxsiy yondashuv metodlarining joriy etilishi yoshlarda innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, insoniylik, hurmat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish zamonaviy tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylangan.[9,63]

Xulosa

Tarbiya konsepsiyalari o'z davrining ehtiyojlari va madaniy xususiyatlariga qarab rivojlanib kelgan. Sharqning ma'naviy tamoyillari va G'arbnining ilmiy asoslangan tizimlari bir-birini boyitgan. Zamonaviy davrda esa tarbiya texnologik yutuqlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Ushbu o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, har bir davr va mintaqaning tarbiya tajribasidan bugungi ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Platon. *"Davlat"*.
2. Aristotel. *"Nikomax axloqi"*.
3. Konfutsiy. *"Axloqiy tamoyillar"*.
4. Jon Lokk. *"Ta'lim va tarbiya haqida"*.
5. Jan-Jak Russo. *"Emil yoki tarbiya haqida"*.
6. Montessori, Mariya. *"Bolalar tarbiyasi"*.
7. Qur'on va Hadislar to'plami.
8. Zamonaviy pedagogika: tarbiya va ta'lim tamoyillari.
9. Tarixiy ta'lim tizimlari bo'yicha tadqiqotlar (2024).

INKLYUZIV TA'LIMDA TARBIYA JARAYONI.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

EDUCATIONAL PROCESS IN INCLUSIVE EDUCATION.

*Siddiqova Zulfiya – FarDU o'qituvchisi.**Muhammadjonova Farangizbegim Ma'mirjon qizi - FarDU talabasi.**Hasanova Mohiraxon Baxtiyorjon qizi – FarDu talabasi.**Homidova Umidaxon Hamidjon qizi – FarDU talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim qanday ta'lim ekanligi, uning ma'nosi, maqsadi va vazifasi hamda tarbiya jarayonining turlari, maqsad va vazifalari keng ma'noda yoritib berilgan. Inklyuziv ta'lim sinflarida qay tarzda tarbiya jarayonlari olib borilishi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье в широком смысле раскрыты, что такое инклюзивное образование, его смысл, цель и задача, а также виды, цели и задачи образовательного процесса. Была представлена информация о том, как проводятся образовательные процессы в классах инклюзивного образования.

Abstract: In this article, what kind of education inclusive education is, its meaning, purpose and task, as well as the types, goals and tasks of the educational process are explained in a broad sense. Information was given on how educational processes are conducted in inclusive education classes.

Kalit so'z: Ta'lim jarayoni, jamoatchilik, bag'rikenglik munosabati, o'quvchilar muammolari, sog'lom bolalar, imkoniyat hozirlash, to'laqonli uyg'unlashuv, bolalarning qobiliyatlari.

Ключевое слова: Образовательный процесс, сообщество, толерантное отношение, проблемы учащихся, здоровые дети, предоставление возможностей, полная интеграция, способности детей.

Key word: Educational process, community, tolerant attitude, student problems, healthy children, provision of opportunities, full integration, children's abilities.

Inklyuziv ta'lim bu hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonalarda, bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Inklyuziv ta'lim - barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir. Bolalarning qobiliyatlaridan va holatidan qat'i nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak

Inklyuziv ta'limning vazifalari – rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabtda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy, ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishlari, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordamlarini berish va ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta'limning maqsadi shundan iboratki, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Tarbiya – shaxsda muayyan ruhiy, aqliy, jismoniy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yeg'indisi hisoblanadi. Bu har bir insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud emas. Sababi shundaki, odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Tarbiya barcha jamiyat va barcha mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha mashg'ul bo'lmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlar darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda mana shunday moddiy hamda ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun albatta jamiyat uzluksiz ravishda

samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizmiga ega bo'lishi shart hisoblanadi.

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metedlari unga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiyaning mazmunini shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi, ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlaridir. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar, mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bo'g'lash g'oyat muhimdir. Ta'lim tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda intilishi aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi mazkur jarayonda fanlar aro aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning, birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir.¹

Tarbiya jarayonining ham bir qancha metod va turlari mavjud. Tarbiya turlari quyidagilardan iborat:

1. Aqliy tarbiya
2. Jismoniy tarbiya
3. Iqtisodiy tarbiya
4. Mehnat tarbiyasi
5. Estetik tarbiya
6. Ekalogik tarbiya
7. Diniy tarbiya

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalalari hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Har bir ta'lim oluvchi borki, avvalo unga go'zal holda tarbiya berish lozim bo'ladi. Chunki, inson bilim olishi, o'qib, izlanishi uchun, u stolda o'tirishni, diqqat bilan o'qituvchini tinglashni, dars davomida atrofidagi tengdoshlariga zarar keltirib qo'ymaslik, ularning bilim olishlariga to'sqinlik qilmasligi uchun dars soatlarida

¹ Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>
"Tarbiyaning maqsad va vazifalari" Nilufar Abduvali qizi Burxonova Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

tinchlikni saqlay bilishi, muallim tarafidan berilgan barcha uyga vazifalarni to'laqonli tushunib, bajarib kelishi kerak bo'ladi. Albatta bularning barchasini tarbiya o'rgatadi.

Inklyuziv sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv rejasi va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi. Tarbiyaviy ishlar ham huddi shunday. Chunki inklyuzivligi mavjud bolalarni qulay sharoitda to'g'ri tarbiyalash va o'qitish ularda nafaqat to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish, balki uni yetarlicha barqaror qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Nuqsoni bor maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning psixologik jihatlari". Sanayev Alisher Komiljon o'g'li O'zMUjizzax filiallari Yoshlar Psixologiya kafedrası o'qituvchisi, Karimova Sohijjamol Oybek qizi O'zMU jizzax filiallari Psixologiya fakulteti 1-bosqich talabasi, Sultonova Laylo Azizbek qizi O'zMUjizzax filiallari Psixologiya fakulteti 1-bosqich talabasi.
2. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257> "Tarbiyaning maqsad va vazifalari" Nilufar Abduvali qizi Burxonova Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
3. J.Hasanboyev „Pedagogika (pedagogika nazaryasi va tarixi). O'zR Oliy va o'rta ta'lim vazirligi Toshkent Nashir 2011.
4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi., T., "Fan va texnologiya",2008. Masul muharrir:p.f.d, professor R.H. Jo'rayev
5. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi):O'qtuvchilar: M.X. Toxtaxodjayva, S Nishonova, J. Hasanboye, M. Usmonboyeva, S. Madyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov.
6. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
7. Azizova Ziroat Bahodirovna "THE IMPORTANCE OF ORGANIZING CHILDREN'S ACTIVITIES IN PREPARATION FOR SCHOOLING". Open Access Repository 9.11 (2022): 236-240. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE 2022 Boston, USA 53
8. N.G.Malikovna CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENSE OF TEACHERS AND EDUCATIONAL ORGANIZATIONS International journal of social science interdisciplinary research ISSN 2022
9. N.G.Malikovna Formation of a sense of national pride among in older preschool children through oral folk art-as a socio-pedagogical necessity Science and Innovation 1 (8) 20672077,2022
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020
11. 6. D.S.Qaxarova " Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil

МАРКАЗИЙ БАНКЛАРНИ РАҚАМЛИ ПУЛЛАРИ

в.б. доцент Зуннунова Хулкар Мухторовна

Тошкент Кимё Халқаро университети,

“Банк иши ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси.

Хонимқулов Ислон Тошкент

кимё халқаро университети банк иши факультети 4- курс

Аннотация. Мақолада Марказий Банкининг рақамли пуллари жорий этиш ва ривожлантириш жараёнини таҳлил қилишга қаратилган. Рақамли пуллар, ўз навбатида, халқаро молия тизимида жадал суръатлар билан ривожланиб бормоқда ва бу жараён мамлакатимиз иқтисодиётига ҳам таъсир этмоқда. Марказий Банкнинг рақамли пуллар тизимини жорий этиши, аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг банк хизматларига бўлган талабини оширишга, шунингдек, молиявий инклузивликни таъминлашга ёрдам беради.

Калит Сўзлар: Марказий Банк рақамли пуллари, рақамли пул тизими, нақд пул муомаласи, молия тизими, инновацион технологиялар, рақамли трансформация, банк хизматлари, молиявий инклузивлик

Кириш. Марказий банк рақамли пуллари (СБРП) — бу марказий банклар томонидан рақамли форматда чиқарилган миллий валюта бўлиб, марказий банкнинг кафолати остида иқтисодий фаолиятда қулай ва самарали тўлов ва ҳисоб-китобларни амалга оширишга хизмат қилади. СБРП, аслида, миллий валюталарнинг рақамли шакли ҳисобланади ва давлат томонидан чиқарилган рақамли актив сифатида молиявий тизимда муҳим рол ўйнайди. Бу пуллар харид қилиш ва тўловларни амалга оширишни осонлаштириб, операцион харажатларни камайтиради ва молиявий хизматларга киришни кенгайтиради.

СБРПнинг асосий вазифаларидан бири иқтисодий тизимда барқарорликни таъминлашдир. Марказий банк кафолати билан таъминланган ушбу рақамли пуллар иқтисодиётни мустаҳкамлашга ҳисса қўшади. Шунингдек, СБРП марказий банкларга пул-кредит сиёсатини самарали бошқариш ва пулларнинг айланишини назорат қилиш имконини беради. Бундан ташқари, СБРП молиявий хизматлардан фойдаланишни кенгайтириб, нақд пулга кириш имконияти чекланган аҳолига ёрдам беради, шу билан бирга тўловларни тез ва хавфсиз амалга ошириш имконини бериб, иқтисодий фаолликни оширади. СБРП шунингдек молиявий тизимда шаффофликни ошириб, рақамли транзакциялар орқали фирибгарлик ва ноқонуний фаолиятларнинг камайишига хизмат қилади. Умуман олганда, марказий банк рақамли пуллари молиявий

тизимни ривожлантириш ва инновацион иқтисодий ечимларни жорий этишда муҳим аҳамиятга эга.

Рақамли иқтисодиётнинг тез ривожланиши глобал молия ва банк тизимларида сезиларли ўзгаришларга олиб келиб, марказий банк рақамли пулларига (СБРП) бўлган эҳтиёжни оширди, нақд пулдан фойдаланишни камайтирди ва рақамли тўлов технологияларини кенгайтирди. Нақд пулга талабнинг пасайиши рақамли тўлов усуллариининг кенг тарқалиши, айниқса пандемия даврида, рақамли молия хизматларига бўлган қизиқишни кучайтирди. Мобил тўловлар, электрон ҳамёнлар ва онлайн банк хизматлари каби рақамли тўлов технологиялари оммалашган сари, марказий банклар рақамли пулларни жорий этишга интиломда, бу эса рақамли тўлов инфратузилмасини мустаҳкамлайди ва молиявий хизматлардан фойдаланишни кенгайтиради. Рақамли иқтисодиётдаги инновациялар янги молиявий технологиялар ва финтех хизматларининг ривожланишига йўл очиб, марказий банкларга иқтисодиётни барқарорлаштириш, халқаро савдони ривожлантириш ва рақамли тўлов тизимларини мустаҳкамлаш имконини беради.

Адабиётлар шарҳи

Марказий банк рақамли пуллари (СБРП) ва рақамли иқтисодиётнинг ўзаро таъсирини тушунишда адабиётларда келтирилган таҳлиллар муҳимдир. Адриан ва Мансини-Гриффоли (2021) ўзларининг "The rise of digital money" асарида рақамли пулнинг молиявий тизимга таъсирини ва уни жорий этишдаги қийинчиликларни ёритиб, молиявий барқарорлик ва махфийликка оид муаммоларни таҳлил қилишади. Улар СБРПнинг халқаро иқтисодиётдаги ўрни ва унинг иқтисодий фаолиятни рағбатлантириш имкониятларини ўрганадилар. Тан ва Мансини-Гриффоли (2023) томонидан ёзилган " Central Bank Digital Currency and Financial Inclusion " иш қоғозида эса СБРПнинг молиявий инклюзия учун имкониятлари ёритилади. Тадқиқотда рақамли пулларнинг кам таъминланган аҳоли учун хизматлардан фойдаланишни кенгайтиришдаги ўрни ва уларнинг банк тизимига бўлган қарамликни қандай камайтириши таҳлил қилинади. Бу тадқиқот, шунингдек, СБРПнинг шаффофликни ошириш ва фирибгарликни камайтиришга қўшадиган ҳиссасини кўрсатади.

Каҳн ва бошқалар (2022) томонидан ёзилган " Digital money and central bank operations " асарида марказий банклар операцияларига рақамли пулларнинг таъсири ўрганилиб, рақамли тўлов тизимларига ўтишда дуч келинадиган хавфсизлик ва иқтисодий барқарорлик масалалари муҳокама қилинади. Ушбу таҳлиллар СБРПнинг марказий банк фаолиятига таъсирини ва рақамли тўлов инфратузилмасини кучайтиришдаги ролини очиб беради. Бортников (2020) "Digital money and digital accounts in central bank" мақоласида марказий банклар

томонидан рақамли ҳисобларнинг муҳимлигини ва уларнинг молиявий тизимдаги ролини таҳлил қилиб, рақамли пулларнинг банк тизими билан интеграциялашуви ва нақд пул ўрнини босиш имкониятларини ўрганади. "Цифровая валюта центральных банков" мақоласида СБРПнинг жорий этилиши ва иқтисодий таъсири бўйича замонавий ёндашувлар ёритилиб, рақамли валюталар орқали иқтисодий ўзгаришларга мослашиш имкониятлари таҳлил қилинади. Европа Иттифоқининг марказий банк рақамли пуллари бўйича маълумотлари эса (Европа маълумотлар ҳимояси бошқармаси) технологик имкониятлар ва хавфсизлик масалаларини ўз ичига олади ва рақамли валюталарни самарали амалга оширишда юзага келадиган муаммоларни муҳокамасини ўз ичига олади.


Таҳлил ва Натижалар

Ўзбекистон Марказий банкини 2021 йил учу қарайдиган бўлсак рақамли пул тизимини ривожлантириш бўйича бир қатор тадбирларни амалга оширди. Бу тадбирлар, рақамли пулларнинг молиявий тизимга таъсири ва нақд пул муомаласидаги ўзгаришларни кўрсатади. Марказий банк томонидан тақдим этилган рақамли пул концепцияси нақд пул муомаласини янада оптималлаштириш, транзакцияларни тезлаштириш ва иқтисодий жараёнларни рақамлаштириш мақсадида ишлаб чиқилган.

Рақамли пулларнинг жорий этилиши нақд пулларга бўлган талабни камайтириши мумкин, чунки истеъмолчилар ва тадбиркорлик субъектлари рақамли тўловларни афзал кўришга интилишмоқда. Ўзбекистоннинг рақамли пуллар тизимига ўтиши, нақд пул муомаласининг динамикасига сезиларли таъсир кўрсатиши кутилмоқда. Марказий банкнинг рақамли пуллари, хусусан, оператив тўловлар, халқаро савдо ва истеъмолчилар учун қулайлик яратади.

2021 йилда банклар орқали нақд пул айланмаси ҳажми 2020 йилга нисбатан 40,8 фоизга ошиб, 507,2 триллион сўмга етди. Бу ўсиш рақамли пуллар орқали амалга оширилган транзакциялар сонининг ошиши, нақд пулларга бўлган талаб ва таклифни шаклланишида Марказий банкнинг рақамли пул тизимининг таъсири натижасида юзага келди. Рақамли пуллар нақд пул айланмасининг самарадорлигини оширишга ёрдам беради, шунингдек, нақд пулларга бўлган эҳтиёжни камайтиради.

1-расм: Нақд пул тушумлари ҳажми ва таркиби динамикаси (сби.уз)
млрд сўмда



Хулоса

Рақамли пуллар ва уларнинг хавфсизлигини таъминлаш муаммолари замонавий молия тизимларининг ажралмас қисмидир. Ўзбекистонда рақамли пул тизимлари ривожланаётган бир пайтда, уларнинг хавфсизлик даражасини ошириш ва шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш масалалари муҳим аҳамият касб этади.

2021 йилда Ўзбекистоннинг чакана савдо ҳажмининг 12 фоизга ўсиши ва пуллик хизматлар кўрсатиш ҳажмининг 19,2 фоизгача ошиши, нақд пулга бўлган талаб ва таклифни шаклланишида муҳим омил бўлди. Нақд пул айланмасининг ошиши ва муомаладаги пуллар миқдорининг кўпайиши рақамли пулларнинг ўрнини янада оширади, бу эса хавфсизлик масалаларини янада долзарб қилади. Шунингдек, банк карталаридан нақд пул ечиш ҳажмининг 95 триллион сўмга етиши ва банкнотлар таркибида йирик номинал банкнотларнинг улушининг ошиши, рақамли пуллар билан боғлиқ рискларни оширади.

Рақамли пулларда маълумот хавфсизлигини таъминлаш учун криптография, иккиланмалли аутентификация, замонавий мониторинг ва назорат тизимлари, фойдаланувчиларни хабардор қилиш ва тизимларни мунтазам янгилаш каби чораларни қўллаш зарур. Ушбу чора-тадбирлар нақд пул муомаласини янада рақамлаштириш жараёнида фойдаланувчиларни ҳимоя қилишга хизмат қилади. Шу билан бирга, рақамли пул тизимларининг ривожланиши давомида шахсий маълумотларнинг махфийлигини таъминлаш ва уларни ҳимоя қилиш долзарб масала бўлиб қолади. Рақамли пул ва тўлов тизимларининг хавфсизлигини таъминлаш нафақат банклар, балки барча молия

муассасалари учун устувор вазифа бўлиши керак. Натижада, Ўзбекистоннинг рақамли пул тизимларидаги хавфсизликни ошириш, нақд пул муомаласининг рақамли трансформацияси жараёнида муҳим аҳамиятга эга бўлади. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши билан бирга, бу соҳада инновацион ёндашувлар ва замонавий технологияларни қўллаш зарурати ортиб бормоқда. Уларнинг муваффақияти, шунингдек, аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг молия хизматларидан фойдаланиш даражасига ҳам бевосита таъсир қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Adrian, Tobias, and Tommaso Mancini-Griffoli. "The rise of digital money." Annual Review of Financial Economics 13.1 (2021): 57-77.
2. Kahn, Charles, et al. Digital money and central bank operations. International Monetary Fund, 2022.
3. Бортников, Сергей Петрович. "Digital money and digital accounts in central banks." Вестник Самарского государственного экономического университета 3 (2020): 100-115.
4. IMF Working Paper Monetary and Capital Markets Central Bank Digital Currency and Financial Inclusion Prepared by Brandon Joel Tan* Authorized for distribution by Tommaso Mancini-Griffoli March 2023
5. cbu.uz
6. review.uz
7. worldbank.org

T+A1:C42ABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	КАМОЛИДДИН АНДИЖОНИЙ МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ НАМОЯНДАСИ	3
2	QUR'ON OYATLARINING NOZIL BO'LISH SABABLARI: KLASSIK VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR TAHLILI	9
3	CASES IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES	17
4	GEODETIC WORKS IN COMMUNICATION OBJECTS	20
5	ЁШЛАР ЎРТАСИДА ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ АНИҚЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ	23
6	XROMOSOMA KASALLIKLARI: SABABLARI, TURLARI VA DAVOLASH	27
7	РАДИОНУКЛИДЛИ ТАШХИСНИНГ КЛИНИК ИМКОНИАТЛАРИ	31
8	FORD-BELMAN ALGORITMI	35
9	MOLIYAVIY HISOB-KITOBLARNI FORD BELMAN ALGORITMLARI YORDAMIDA YECHISH	43
10	FORD-BELMAN ALGORITMI YORDAMIDA ENG QISQA YO'LLARNI TOPISH	53
11	MURDA TOPILGAN JOY VA VOQEA JOYINI KO'ZDAN KECHIRISHDA MUTAXASSIS SUD-TIBBIY EKSPERT ISHTIROKINING SUD-TIBBIY AHAMIYATI	60
12	DEVELOPMENT OF 6-7-YEAR-OLD CHILDREN'S UNDERSTANDING OF ELEMENTARY MATHEMATICS THROUGH AN ELECTRONIC PLATFORM BASED ON INTERACTIVE INTELLIGENCE.	65
13	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ.	72
14	O'ZBEKISTON REKREATSIYASI VA LANDSHAFTLAR	76
15	THE ROLE AND IMPORTANCE OF SPEAKING SKILLS DURING THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE	80
16	СЛУЖЕБНЫЕ ДЕЛА ПРИ ПРАВИТЕЛЬСТВЕ	86
17	HOSILA	90
18	O'ZBEKISTONDA PLASTIK KARTOCHKALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH	93
19	ЖИНСИЙ ЖИНОЯТЛАР СУД-ТИББИЙ ЭКСПЕРТИЗАСИННИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	101
20	ЖИНСИЙ ҲОЛАТЛАР СУД-ТИББИЙ ЭКСПЕРТИЗАСИННИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	106

21	КЎРИШ АЪЗОЛАРИ ЖАРОҲАТЛАРИНИНГ СУД-ТИББИЙ ТАХЛИЛИ	111
22	ARDUINO PLATFORMASIDA DATCHIKLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNI O'RNI.	116
23	TRANSFORMATORLAR VA TEXNIK FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR	122
24	ZAMONAVIY ASBOB VA JIHOZLARNI "LEARNING APPS" DASTURI YORDAMIDA O'QITISH	126
25	TEXNIKA OLIY O'QUV YURLARIDA "MUHANDISLIK PSIXOLOGIIYASI, FANINING AHAMIYATI	134
26	ZAMONAVIY DARSLARDA KEYS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	138
27	INKLYUZIV TA'LIM BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIB BORILGAN VA OLIB BORILAYOTGAN FAOLIYAT	142
28	IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TURLARI VA ULARNI INKLUZIV TA'LIMGA JALB ETISH.	145
29	INKLYUZIV VA KORREKSION TA'LIMDA QO'LLANUVCHI INTERFAOL USULLAR	151
30	O'QUV MUHITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TINCHLANTIRUVCHI VA FAOLLASHTIRUVCHI YONDASHUVLAR	157
31	INKLYUZIV VA KORREKSION TA'LIMDA QO'LLANUVCHI INTERFAOL METODLAR	163
32	INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARI	166
33	PHYSICAL ACTIVITY IN STUDENTS AND ITS EFFECT ON ACADEMIC SUCCESS	170
34	TOR XOSSALARI VA TURLARI	173
35	GEOMETRIK O'YINLAR VA ULARNING MATEMATIK TAHLILI	177
36	CHIZIQLAR VA YUZALARNING TEKISLIKDA VA FAZODAGI KESISHISHI	182
37	YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYAMIZDA INSON HUQUQLAR VA MANFAATLARI MASALALARI	187
38	TURLI ZAMON VA MAKONLARDA YARATILGAN TARBIYA KONSEPTSIYALARI	192
39	INKLYUZIV TA'LIMDA TARBIYA JARAYONI.	196
40	МАРКАЗИЙ БАНКЛАРНИ РАҚАМЛИ ПУЛЛАРИ	200

Напоминание! — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.


Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович

Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон

Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

